

Жадид

2025-yil 25-aprel

№ 17(69)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

XUSH KO'RDIK

Keyingi yillarda qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy-madaniy, adabiy-ma'rifiy aloqalar chin ma'noda kuchaygani sir emas. Zero, qo'ni-qo'shnichilik, do'st-birodarlik, yaxshilik yo'ida qo'ini qo'iga berish ma'naviyat sohasida ham qaysidir ma'noda "butun olam tortishish konuni" ga bo'ysundi. Zero, orasta ko'ngillar biri-biriga intildi, biri ikkinchisini sog'inadi. O'tmishta ildizlari bitta bo'lgan ulkan daraxtlarning mevalari totli, soyalar manfaatlari va quyuq bo'lishi oydek ayon gap. El obodligi va tinchligi, mamlakat ahlining farovon turmushi yo'lidiagi har qanday xizmatdan inson mammun bo'ladı. Odatta qo'shnilar gurungida tabiyyi ravishda shonli tarix, olsuyaqin o'tmishta bonyod bo'lgan shaharlar, qasrlar, koshonalar bilan birga ulug' allomalar va ularning o'zaro ma'naviy-ruhiy robitalardan so'z ochiladi.

To'g'risi, Turkmaniston Respublikasi milliy yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedovning Samargandga tashrifini eshitganimda, xususan, O'zbekiston Prezidenti mehnomin kutib olib, birligida tarixiy maskanlarga ziyorat qilganini ko'rib xayolimdan yuqoridagi fikrlar o'tdi. O'zbek va turkman xalqlarining birdamligi, og'zibirligi, ilm-fan va madaniyat sohasidagi hamkorligi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun juda ulkan ahamiyat kasb etadi. Yer yuzining sayqali Samargandni ko'rishga orzumandlar juda ko'p jahonda. Bu ulug' shaharni nasib etgan tomosha qiladi. Samargandga keyingi yil va oyldara dunyoning turli mintaqalaridan shunday martabali shaxslar ko'p keldi. Ular orasida prezidentlar, vazirlar, arboblar-u allomalar bor. "Sharq taronalari" xalqaro festivalida san'atkorlar, xalqaro anjumanlarda turli soha olimlari Samargandga butun borlig'i bilan singib ketishadi va yana takror kelishini niyat qilishadi.



Bu qadim va navqiron shaharning ma'naviy ob-havosidan nafas olgan, osmonida charaqlagan yulduzlarni ko'rgan har kim beixtiyor Amir Temurni, Mirzo Ulug'bekni yodga oladi. Hazrat Alisher Navoiy bu maskanda bir necha yil istiqomat qildi, o'qidi. Navoyini o'ziga ustoz bilgan turkmanlarning ulug' shoiri Maxtumquli she'rлarinining birda samarcandlik ulamolarni, Samarcand shahrinini ehtirom bilgan tilga oladi. O'zbek va turkman xalqlarining milliy iftixori bol'gan ikki shoir orasida, garchand bir necha asrlik masofa bo'lsa ham, ular doimo ustoz-shogird maqomida eslanadi. Maxtumquli Samarcandni ulug'lab havas qilgan bolsa, hazrat Alisher Navoiy o'z vaqtida madaniyat, ilm-fan markazi bol'gan Marv (hozirgi Mari) shahriga, marvaziyarning insoniyat tarixidagi missiyasiga shu darajada yuksak baho beradi. Shuningdek, hazrat Alisher

Navoiy asarlarining qahramonlari Marv shahriga butun qalbi bilan intildi:

"To boqib Marv sari bosh urayin,
Boshni ko'k manzardin oshurayin".

Ilm-fan va madaniyat maskani bo'lgan bu shahar Alisher Navoiy uchun juda qadrondi edi.

Alisher Navoiy o'z so'zining quvvati dunyo ahli qalbiga yetib borishini chuqr anglagan shoir edi. Shunga ko'ra:

"Ko'ngil bermish so'zima turk jon ham,
Ne yolg'iz turk, balkim turkmon ham",

- deb yozdi. Muhtasham Mavoraun-nahrning dunyoga dong taratgan ta'lim dargohlari joylashgan Samarqand, Marv, Buxoro, Niso, Xiva kabi shaharlar hali hamon ulug'lar yozgan asarlar orqali go'yotirik

insondek bashariyatga so'z qotadi. Shu e'tibordan Maxtumqulining Xiva madrasasiga qarab:

"Ajratman endi oq-u qaroni,
Do'st-raqib, qardoshim, Haqni, yoronni,
O'qidim, ko'tardim Kitob – Qur'oni,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal Sherg'oz!",

- degan misralarida chuqr ma'no bor. Boshqa bir she'rida Maxtumquli:

"Qadron do'stingdan yuzing o'girma,
Borsang, boshi uzra toj etar seni",

- deb yozadi. Shoiring bunday hikmatli baytleri umuminsoniy mohiyatga ega, albatta. Chunki chin do'st qo'lni qo'lg'a berib do'sti bilan birga yuksaladi.

Zamonamiga yaqinroq kelaman. Iste'dodli, qahramon shoirimiz Erkin Vohidov bir she'rida "Turkman – tutash tomirim", deb yozgan edi. Zero, turkiy millatlarning ildizi bir, tarixi bir, tillari juda yaqin. O'zbek bilan turkman o'zaro suhbatlarida uchinchir bir tilmochga zarurat sezmaydi. Bu qon-qardosh ikki xalq asrlar davomida Jayhun bo'yalarida o'zaro quda-anda, do'st-u inoq bo'lib yashab keladi.

Gapimni she'rлarida ustozlarining adabiy pafosini davom ettirgan dasho'g'izlikli talantli shoir Abduvohid Sayid Muhammadning quyidagi misralari bilan tutagishni ma'qul ko'rdim:

"Ikki gardosh – ikki el
Bir-birini og'am der.
Bir-biriga oshnam deb,
Bolasiga chag'am der,
Besh ming yilmi – o'n ming yil
Bir kosadan ovqat yer,
Shundayin barqarordir
O'zbek-turkman do'stligi.

Bahodir KARIM

Men dunyonı nima qildim?

O'zing yorug' jahonim,

O'zim xoqon,

O'zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,


Yagonam deymi,

Topingan koshonam

deymi,

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim...



(4-sahifada o'qing).

SHUKRONASI VA HAMIYATI

BUTUN ODAM EDI

Men dunyonı nima qildim?

O'zing yorug' jahonim,

O'zim xoqon,

O'zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,

Yagonam deymi,


Topingan koshonam

deymi,

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim...

MUTAFAKKIRLARIMIZ



XOJA BAHOUDDIN NAQSHBAND


ISMI, LAQABI,
NISBASI VA
SHAJARASI

Xoja Bahouddin
Naqshband Buxoriy –
islom olamining eng
mashhur avliyolaridan
biri, naqshbandiya
tariqatining asoschisi.
Xalq orasida "Bahouddin",
"Bahouddinjon", "Xoja
Bahouddin", "Bahouddin
Balogardon", "Balogardon",
"Xojayi Buzruk", "Shohi
Naqshband" nomlari bilan
ham ulug'lanadi.

Asl ismi – Muhammad.
Otasing ismi ham Muhammad
bo'lgan. Ba'zi manbalarda
bobosining ismi ham Muhammad
ekani haqida ma'lumot
keltiriladi. Ota tarafidan –
sayyidlar avlodiga mansub
bo'lgan. Shajarasi payg'amarbar

(Davomi 2-sahifada).

TURIZM



TASAVVURDAN TASHQARIDAGI TEZLIK

To'qqiz yil oldin respublika matbuotida bir xushxabarim chop qilingan. Ixchamgina xabar ohangida hayajon juda ustun, shovshuga urg'u berilgan, desayam bo'ladı. Unda "...Ispaniyada sakson million addali aholi yashaydi va bu mamlakatga har yili 85 million sayyoh keladi. Xiva shahri aholisi soni 65 ming atrofida. O'tgan yili shaharga ilk bor aholidan ko'p – 66 ming sayyoh tashrif buyurdi. Soha tadqiqotchilar hududga shu yerda yashaydigan aholidan ko'p sayyoh kelishini tizimda "inqilob" deyishadi. Demak, qadim va hamisha navqiron Xiva o'sha inqilob bosqichini boshdan kechirayotir".

O'tgan 2024-yil davomida ko'hna shaharga kelgan xorijiy va mahalliy sayyohlar soni

KITOBXONLIK HAFTALIGI

MA'RIFATLI MILLATNI YENGIB BO'L MAYDI

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi deb lutf etgan edilar. Millatparvar jadid bobolarimiz ham bu ulug' hikmatga tayinib, el-ulusni hamisha ilm-u ma'rifat, mutolaa va mushohadaga chorlab kelgan. Ana shunday ezgu ishlar bugun ham davom etmoqda.

(Davomi 5-sahifada).



JADIDSHUNOSLIK

"OLISLARDAN BIR SADO..."

AQShning Michigan universiteti professori, taniqli adib va shoir, jadidshunos olim

Temur XO'JAO'G'LII bilan suhbat



– Muhtaram Temur XO'JAO'G'LII o'sha tashrif va uchrashuv janoblari, istiqlol arafasida Toshkent davlat universiteti (O'zbekiston Milliy universiteti) auditoriyasiga Sizni ustoz-professor Begali Qosimov olib kirgan edi.

O'shanda talabalar orasida men ham bor edim. Shu uchrashuvni, latofatlari nutqni, samimiyatni hali-hanuz yaxshi eslayman. Bugun ham xuddi shundaysiz. Sizni ko'pchilik ziyo'llilarimiz yaxshi bilgani uchun men an'anaviy tarzagi tarjimayi hol bilan bog'liq savollardan biroz chekinib,

– Shunday tasodiflar bo'ladiki, ular inson hayotida burlish nuqtasini yaratadi. 1990-yilda O'zbekistonga sayohatim hayotimdagida ana shunday eng muhim burlish nuqtasi bo'ldi, desam yanglish bo'lmaydi. Buning bir necha sababi bor. Otam Usmonxo'ja (1878–1968) 1922-yil oxirida 44 yoshida Buxorodan, umuman Turkistondan chiqib ketishga majbur bo'lgan edi.

(Davomi 7-sahifada).

ILM YO'LI



YEMAKNI O'YLASANG, TUPROQNI BOQ

NANOBIOMATERIAL NIMA?

Yangi asr insoniyatni kutilgan va kutilmagan sinovlar bilan qarshiladi. Kutilgani nima-yu, kutilmagani nima? Iqlim o'zgarishi, muzliklar erishi, sayyoramiz haroratingan anomal o'zgarishi, shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligi va tanqisligining kun tartibidan mustahkam joy olishi, qurg'ochchilik kabi tabiiy ko'rgiliklarning yuzaga kelishi avvaldan kutilgan dolzarb muammolar edi. Biroq bu jarayonlarning shahd olishi kutilmagan(d)a bo'di.

BMT ma'lumotlariiga ko'ra, har yili dunyo 4,7 million hektar o'mronni yo'qotmoqda, 12 milliondan ortiq ekin yerlari esa jiddiy degradatsiyaga uchrayapti. Bu muammolar O'zbekistonga ham begona emas.

Biz olim safitida 2000-yillarda boshlaridayoq mazkur xavf-xatarlar jamiyatimiz uchun dolzarb bo'lishini anglaganimiz uchun ilmiy tadqiqotlarimizni asosan shunday muammolar yechimiga bag'ishlab kelmoqdramiz. O'zbekistondagi deyarli barcha ilmiy-tadqiqot institutlarida bu borada izlanishlar olib borilayapti.

Hozirda men mikrobiologiya, mikrob asosidagi biotexnologiyalar, nanoteknologiyalar va agrotexnologiyalar sohasidagi ilmiy loyihalarni boshqarib kelyapman. Aspiranturada o'qigan vaqtlarida mikrobiologiya sohasi bilan shug'ulanganman. Xususan, foydalik bakteriyalarni ajratish, ularni qishloq xo'jaligida qo'llash istiqbollarini tadqiq etganman. 2012-2018-yillarda Xitoy Fanlar akademiyasida mikrob biotexnologiyalari va nanobiotexnologiyalar bo'yicha izlanishlar olib bordim. O'zbekistonga qaytgach, olingan ilmiy natijalarni amaliyotga joriy qilishga, ya'n qishloq xo'jaligida organik turdag'i mahsulotlarni yetishtrishga kirishdik.

Asosiy e'tiborimiz o'tmishti d'ozlari bilib, ularni fizik va kimyoviy jihatdan tasniflash hamda tibbiyot va qishloq xo'jaligida qo'llash masalalariga qaratilgan. Biomateriallarning o'ziga xos, ajoyib xususiyatlari bor. Qishloq xo'jaligida haddantashqari ko'p ishlatalayotgan, turli kasalliklarga, ayniqsa, xavfl o'smalar, qon buzilishi, inson xromosomasi va irlarini mutatsiyasiga sabab bo'ladijan zaharli moddalar o'rniiga nanomahsulotlarni qo'llash mumkin. Biz shu maqsadda xavfsiz, samarali va iqtisodiy jihatdan arzon nanomahsulotlar konsepsiyasini ilgari surmoqdamiz.

Aslida, ota-bobolarimiz o'tmishti d'ozlari bilib, nanomateriallarni va nanozarrallardan foydalanan kelganlar. Masalan, odamlar kumush taqinchoqlar solangan giyohli damlamalarni ichishgan, chaqaloqlarni shu suvda yuvintirishgan, shuningdek, uni turla yara-chaqalarni davolashda qo'llashgan. Bu amaliyotlar kumush nanozarrallari hosil bo'lishining tabiiy jarayoniga osaslangan. Kumush buyumlar suvda o'zgacha zaryadlangan zarralarni ajratgan va giyohlardagi kimyoviy moddalar ta'sirida nanozarrallar shakliga o'tgan. Qadimgi yunon, hind tibbiyotida hamda turkiy xalqlar an'anasida kumushli suvdan foydalishan keng tarqalgan. Biz bu tajribalarni ilmiy asosda o'rganib, ularni qishloq xo'jaligiga tatbiq qilishga kirishdik.

NANOZARRALARINI QISHLOQ XO'JALIGIDA QANDAY QO'LLASH MUMKIN?

Hozirgi vaqtida qishloq xo'jaligi sohasida virusli, bakteriyali va zamburug'li kasalliklar ko'paygan. G'o'za endigina chinborg chiqarayotganda qurib qoladi. Bu fonda fuzarioz quish衍edilaydi. O'simlikning ildizi chiriydi; bug'doyga sariq zang tushadi, issiqxona ekinlari ham turli kasalliklardan aziyat chekyapti... Xullas, sanasak bunday muammolarning adog'i yo'q. Chunki vaqtida ularغا qarshi kurashishda katta xatoga yo'q yildi: biologik usulda emas, kimyoviy vositalar – agrozaharlar bilan yo'qotish maqsad qilindi. Oradan yillar o'tdi, muammolar

Baxtiyor RASULOV,
biologiya fanlari doktori

hal bo'ldimi? Aksincha, yangi muammolar yaradi. Biz o'z o'g'limiz bilan o'simlik "o'lati va vabosi"ning yangi-yangi avlodlarini dunyoga keltirdik. Negaki, virus va bakteriyalar kimyoviy moddalarga moslashib borish qobiliyatiga ega. Endi eski vositalar foyda bermayatishi. Shu bois, bunday "o'lat va vabo"ni nanozarralar bilan cheklash – muhim va istiqbolli usuldir. Bu usulni aniq me'yordorda o'rganib, joriy etish lozim.

"BIOAZOT" BIOPREPARATINGIN O'ZI NIMA?

Ilmiy xostar uchun deyish mumkin. Uning murakkabligini bor bo'yicha tushungani uchun ham olim olim-da. Biroq olimning vazifasi faqat ilm qilish emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga hissa qo'shishda ham ko'rinadi. Masalan, bizning laboratoriyaning yo'nalishlardan biri – qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar sarfni kamaytirish, hatto ulardan voz kechib, yangi turdag'i biologik o'g'itlarni joriy qilishdan iborat. Shu maqsadda biz "Bioazot" biopreparatini taklif qildik. Bu preparat joriy yilda ham sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi va mineral azot o'rnni to'liq bosdi. U turpoqda ko'payib, o'simlikka biologik holdagi azotni yetkazib beradi.

Xo'sh, "Bioazot" biopreparatining o'zi nima? Uning asosini tirik hujayra – havo azotini o'zlashtiruvchi *Azotobacter chroococcum* bakteriyasi va o'simlik uchun foydali tabiiy birikmalari – polisaxaridlari, vitaminlari, aminokislotalar tashkil etadi. Bakteriya o'simlik ildizida ko'payib, havodagi 78 foiz azotni o'zlashtirib, biologik azot – oqsil, polipeptid, aminokislota ko'inishida o'zlashtiriladigan moddaga aylantiradi. Sodda qilib aytganda, havodagi azot bilan dehqonchilik qilish imkonini yaratiladi. Bu azot tirik modda bo'lub, o'simlik ham tirik organizm sifatida undan ko'proq foyda ko'radi.

Bir narsani alohida ta'kidlash lozim, hozirgi qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan samarali foydalishning aniq tizimi yo'q. 100 kilogramm mineral azot turpoqqa berilgach, uning teng yarmi havoga uchib ketadi. Faqat 15 foizningina o'simlik o'zlashtiradi. Bu esa ulkan isrof demakdir. Shu bois ham ushbu muammoga barham berish uchun biopreparatlar joriy etilmoqda.

Yana savol tug'iladi: biologik o'g'itlar nega kerak? Mineral o'g'itlar yetarli emasmi? Albatta, mineral o'g'itlar bor, lekin ular yillar davomida atrof-muhitni ifloslantirmoqda, sug'orishga suv ham tortilib bormoqda. Mineral o'g'it suvida erimas ekan, o'simlikka singishmaydi. Ilgarilari g'o'za to'rt-besh martalab sug'orilardi, hozir ayrim viloyatlarda bir-ikki marta suv ichadi, vassalom. Demak, g'o'za butun umri davomida faqat bir-ikki bor oziqlanmoqda. Hosildorlik va daromad shunga yarasha tushib ketyapti. Nima qilish kerak? Yangi, samarali va arzon usullarga o'tish darkor. Bu – zamon taqozisi. Qisqasi, yemakni o'ylasang, avvalo, turpoqi boqishing kerak. Bu talabga moslashmasak, qishloq xo'jaligi samarasiz, faqat xarajatlari sohaga aylanadi. Shu bois biologik o'g'itlar bugun juda muhim.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ekinlarini kasalliklardan himoya qilish uchun ishlatalayotgan zaharlarning ham miqdori, ham salbiy ta'sirini biologik vositalar bilan kamaytirish mumkin. Menimcha, bolalarda ko'payib borayotgan og'ir kasalliklar sababi ham aynan ana shu zaharlarni bilan bog'liq.

Xullas, hozirgi ahvolimiz haqida yaxlit tasavvur hosil bo'ldi deb o'ylayman. Biz tanqidiy fikrashimiz, o'z ishimizga baho berishni o'rganishimiz va zarur islohotlarni amalga oshirishimiz kerak. Aks holda, kelajakda ishlab chiqaruvchi emas, sotib oluvchiga aylanamiz. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun esa, albatta, faol ishlab chiqaruvchiga aylanishimiz lozim.

ORAMIZDAGI ODAMLAR

QAPCHIG'AYLIK QARCHIG'AY



Chimyon bilan Polosonning naq o'tasida, magistral yo'l yoqasida, qirlar orasida Qapchig'ay otlig' qishloq bor. Nomining o'zidan o'tmish qafasini sezgindarsiz. Manbalarda kelishicha, bu so'zning tub ildizi mo'g'ulcha bo'lib, "dara", "o'tish qiyin bo'lgan joy" kabi ma'nolarni anglatadi. O'shandaym biznikilar ikki tomonda turib, bosqinchilarning rosa ta'zirini bergen ko'rinadi.

Aholi uylariga yondosh bu tepaliklar yaqin-yaqingacha quyoshda kuyib, jizg'anagi chiqib yotardi. Qishloq xo'jaliqida ro'y berayotgan tub islohotlar samasari o'larqo bu yayoqlarda uch-to'rt yil ichida yuzlab gektar tokzorlar paydo bo'ldi.

Hammaning nimagadir ishqibozligi, qattiq berilgan bir hunari bo'ladi-ku, desangiz, bog'bonning ham ashaddiysi bo'larkan. Abduvohid Mamatqulov – ana shunday yuragida o'ti borlardan, "Islom" fermer xo'jaligi rahbari. Uch gektar uzumzorni parvarish qiladi. Abduvohid akani yaxshi ma'noda o'qimagan olim desak bo'ladi. Bog'dorchilik ilmida boxabar, soha yangiliklariдан, dunyodan voqif odam. Hovlisida qo'lba laboratoriya ham bor. Doim izlanishda, yangi navlарdar daragini eshitса, dunyoning u burchagidan bo'lsa ham, Qapchig'ayga olib kelmaguncha ko'ngli joyiga tushmaydi. O'zimizning iqlimda sinab ko'radi, tabiatini o'rganadi, tajriba qiladi. O'xshasa, qo'shiнi bog'bonlarga ilinadi.

– Abduvohid aka, gap-so'zingiz ba'mani, olim odamga o'xshaysiz. Ilmiy darajangiz ham bormi? – deb qiziqaman-

– Ilmiy daraja... O'ttiz yildan berisi yer ichidaman, – deb vazmin gap boshlaydi mezbon. – O'zim dehqonning bolasi, diplom beradigan o'qishlarga hafalsa qilmadim. Yerga mehr berdim, Xudo rizq-ro'zimni yerdan undirib berdi. Ish faoliyatimni kichkina bog'dan boshlagan bo'lsam, tinmay izlandim, bilmaganimni ustozlardan so'rab o'rgandim. Umrimni shu sohaga bag'ishladim. Bilasiz, Oltiariqda meva-cheva mo'l. Ayniqsa, uzum. Asosiy daromadimiz eksportdan. 2018-yil biz ham dunyoning qo'yniga qo'l solib ko'rdik. Dubaya "Rizamat ota"dan bir quti namuna jo'natdik. Lekin shartnomaga bozorboshipsi unamapti. Nimaga desam, bir donasini kesib ko'rib, "Urug'i bor ekan, hozir urug'siz uzumga talab yuqoni", degan mish (o'ya cho'madi bog'bon akamidi).

Qadri gazetxon, bog'bon akamiz o'yini o'ylab tursin, orada men ham sizga aytarlarimni shipshitib o'tay. Jadidilik harakatining ilk kurtaklari Qirimda potrab ochilgan bo'lsa, ozodlik epkini uning iforini Turkistonga keltirdi. Ma'rifatparvar bobolarimiz bolaridek yelib-yugurib nekta to'pladi, harakat yoylib gurkiradi. Abduvohid akani ham yangilikka ilhomlantirgan inson o'sha Qirimda Rustam ismili olim yigit yaxshi.

Tarixdan bilasiz, qattol tuzum jalloldari qardosh qrim-tatarlarni uch kecha-kunduz ichida yoppasiga o'z vatanlardan surgun qiladi. Rustamning oilasi ham o'sha talotumlarda biz tomonlarga kelib qolgan Asli Andijonda tug'ilgan Rustam o'n to't yoshida "ajodalar chorlov'i" javoban oilasi bilan ota yurtiga qaytib ketadi. Lekin O'zbekistondan, etu tiroq bo'lub ketgan jigarlaridan qanday uzilsin!

Qisqasi, Abduvohid aka shu olim do'stidan ulgi oldi, Yevropa, Amerika tajribasini o'rgandi. Shundaymi, Abduvohid aka sohibkor bog'bonlarga xos mehr bilan nishotgan ko'chatlari suqilab. – Yerga o'tqazguncha tayyorlov bosqichlariдан o'tadi. Hozir timim davrida, bida harorat issiq, shuning uchun muzlaklichiga qo'yidik. Haroratni asta-sekin pasaytirib, oxiri minus bir, ikkiga tushiramiz. Chunki qirov ko'rgan kaltaklarning joni qatting bo'ladi, kasalga chalinavermaydi. Shu tarbitda qalamchalar bigza suvqo'zda o'ralgan holda keladi, – deydi Abduvohid aka sohibkor bog'bonlarga xos mehr bilan nishotgan ko'chatlari suqilab.

– Shunday. Birinchi muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin o'zimcha xulosa qildim: "Ha, demak, dunyo bozori urug'siz uzumga o'tibdi". Yon-verimga qarasam,



hamma yoq bir xil, yangilik yo'q. Jahonga bo'yashmasak bo'lmaydi, dedim. Jahan bozorida talabgir navlarni yetishtirib, o'zimizda ko'paytirishni maqsad qildim. Birinchi o'rinda negizga e'tibor qaratdik. Poydevor mustahkam bo'lsa, devor qulab tushmaydi. Qirimda ikki yuz dona payvandtag olib keldik. Payvandtag degani bu hosil olishga mo'ljallangan nav ulanadigan ildizli ko'chat. Bilsangiz, Yevropa davlatlarining to'qson foizi shu usuldan foydalani. Payvandtagning dunyoda yuzdan ortiq turibor. Bizda o'ttiz xili ommalashgan. Bugun eng a'losi mana shu Amerika payvandtagi – Kober 5BB bo'lub turibdi. Unga ulangan tokinning hosildorligi biznikidan 20-30 foiz ortiq. Yevropada bir gektar uzum bog'idan 90 tonna uzum hosil olishar ekan. Tasavvurga sig'dirish qiyin, to'g'rimi? Bizda 50 tonna uzum solgan bog'lar "charchab" qoladi. Tagiga ming ishllov bering, o'git soling – ko'tarolmaydi. Mana shuning uchun payvandtag tanlashda gap ko'p. O'zimizda "So'g'diyona" degan gigant uzum bor. Urug'i bo'lmaydi. Birinchi shundan ekdim. O'zbekistonda eng edor mayiz shu uzumdan chiqadi. Urug'siz navlarning yana bir yaxshi tarifi – mabodo bozorda ketmay qolsa, mayiz qilib sotsangiz bo'ladi. Shu-shu, izlanib-izlanib, yangi navlarni o'zimizning sharoitda sinab ko'ra boshladik. Amerika, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindistondan qalamcha buyurtma qilib keltirdik, turli navlardan bir gektar yerga payvand qildik. Hozir bog'imizda uzumning saksandan ortiq xili mavjud. Hosilga kirganiga ikki yil bo'ldi. Yesangiz karsillab, mazasi og'izda qoladi. Har birining o'ziga xos ta'mi bor. Ko'rinishi zo'r-u, yesangiz maza-matra yo'q. Uzum degani chiroyiga yarasha totli bo'lsa-da. Ko'pchilikka manfaatlari bo'ladi, deb yaxshi niyatda "Avatar uzumchilik" degan telegram guruhi ochgandim. Yaxshi yurib ketdi. Hozir obunachilar soni ikki yuz mingga yetib qoldi. Viloyatlaridan tortib Qoraqalpoqdan, Tojikiston, Qirg'iziston, Qirin tomonlardan do'stlarimiz qo'shilgan. Ular ichida ishga endi kirishgan bog'bondan tajribali mutaxassislar gacha bor. Kimning nima savoli bo'lsa, kirib bermal so'raydi, tajribamizdan kelib chiqilaymiz.

– Bu xona mening laboratoriym. Qarang, bu qutilar kichkina ko'ringani bilan hozir ichida ikki yarim mingta nishona bor. Bu – ikki yarim gektar bog' degani. Ko'chatlar kuzga tayor bo'ladi, keyinchalik o'zidan qalamcha ko'paytirib, so'raganlarga tekinga tarqatamiz. Chunki hosilni qancha ko'paytirsak, eksport hajmi shuncha oshadi. Chet elning katta firmalari katta oxurda yem yeydi. Deylik, menda bir tonna uzum bor, lekin yakka o'zim katta bozorga kirolmayman. Dengizga qayiqda chiqilmaydi. Yuz tonna yetkazib beraman desangiz, zumda shartnomaga taklif qiladi. Yuz tonna hazil gap emas, ammo bog'bonlar birlashib evini qilsak bo'ladi. Endi yangiliklarni gapirsam, Hindistonda Vijay Shankar Desi ismli seleksioner oshnam bor. Shankarlarining yaxshisi (kulib). Shu odam uni bunga chatishtirib, dunyoga mashhur yangi nav yaratdi. "VCD" deb o'z ismining bosh harflaridan ot qo'yan. Uzumning donasi o'rtaча "Shudring" bodingiday, urug'i yo'q. Uning oldida "kelinbarmog'imiz" ham kaltalik qilib qoladi. Yaqinda shu navdan ham keltirdim. Manavi qalamchalar bigza suvqo'zda o'ralgan holda keladi, – deydi Abduvohid aka sohibkor bog'bonlarga xos mehr bilan nishotgan ko'chatlari suqilab.

– Yerga o'tqazguncha tayyorlov bosqichlariordan o'tmaydi. Hamma zamonalarda yangilikni kimdir boshlanib beradi, sinovdan o'tgan tajriba ommalashib, soha yanada rivojanlari.

Abduvozid Mamatqulovning ham izlanishlari o'z samarasini berib, ezgu niyatlar ro'yobga chiqsin! Hali bu ko'chatlar kuchga to'lib, larzon-larzon bog'lar bo'lajak! Birinchi navbatda O'zbekistonning eksport salohiyati ortadi, jahon avyonida yurtimiz nufuzini ko'taradi. Ertaga rastalarda tovlinib turgan uzumdan tatlil ko'rgan arab-u ajam, hind-u xitoy, olmon-u farang "Bu ajoyib ta'mli uzumlar qayerdan?" deb so'raydi. O'shanda biznikilar qadoqni burib, "o'zingiz o'qib oling" degandek katta harflarda bitilgan yozuvni ko'rsatadi: "Made in Uzbekistan!"

Jamoliddin BADAL

UYG'OOQ XOTIRA

Prezidentimizning "O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorini estrada qo'shiq san'ati muxlislari cheksiz quvonch va sevinch yoshlari bilan kutib olgani yodimizda. Chunki ushu hujjat san'atimiz va madaniyatimiz olamida tarixiy hodisa bo'ldi.

Hamom esimda, Botir Zokirov hayotlik paytida 50 yillik yubileyini o'tkazish arafasida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga maqola tayyorlash uchun u kishi bilan suhbatlashgan edim. Ulug' san'atkor bilan har galgi uchrashuv men uchun betakror bayram edi.

Xudo xohlasa, yubileyni respublika "Kino-chilar uyi"da o'tkazmoqchiman. Foyeda chizgan kartinalarini ko'rgazmasi bo'ladi. Qo'shiqlar katta zalda ijo ro'iladi. Iloji boricha maqtov so'zlar bo'lmaydi. Odamlar gapdan bezor bo'lgan. Maqtovdan nari yurgan yaxshi. Bu muxlislarini oldida o'ziga xos ijodiy sarhisob bo'ladi. Hammasi erkin tarzda o'tkaziladi, - deb niyat qilgan edi o'shanda Botir Zokirov.

Afsus-nadomatlar bo'selsinki, u kishining bu yorug' va egzu niyatlar, ajoyib orzulari amalga oshmadi. Buyuk san'atkor og'ir kasallik tufayli 1985-yil 23 yanvar kuni 49 yoshida vafot etdi. Yubiley o'tkazilmay, armon bo'lib qolib ketdi. So'ng bizga nomalum sabablarga ko'ra turli bahonalar, keraksiz gap-so'zlar bilan san'atkorning 60, 70 va 80 yillagi tavallud kunlari nishonlanmadи.

Qaror e'lon qilingan kuni Botir Zokirovning ukasi, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasida uchrashib qoldik. Biz yuraklarimizga bayram olib kirgan bu xushxabarni eshitib, bir-birimizni quchoqlab, yig'lab yubordik. Bu haqiqat jamol ko'rsatgan lahzalarda paydo bo'lgan sog'inch va quvonch yoshlari edi.

- Alloha shukur, Prezidentimiz sharofati bilan Zokirovlar sulusolasingin ko'p yillik orzusi ushaldi, - dedi Farrux aka hayajon bilan ko'z-zoshlarini artarkan...

Biz yuqorida qabul qilingan qarorning zavq-u shavqidan o'zimizga kelmay turib,



Prezidentimizning ibratl tashabbusi bilan "O'zbekiston davlat konservatoriysi huzurida Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati institutini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori ham e'lon qilindi.

Yana bir quvonchli hodisa: Botir Zokirovning 85 yilligi keng nishonlangan kunlarda poytaxting muhtasham maydonida ulug' san'atkorning mahobatli haykali ochildi.

Bir so'z bilan aytganda, bizdan ancha uzoqlashtirilgan Botir Zokirovning muborak nomi va betakror ijod maktabi qaror tufayli to'la-to'kis o'zimizga qaytdi. Botir Zokirov qaytadan dunyoga keldi, qaytadan tug'ildi.

Botir Zokirov kundaligining 1952-yil 20-avgustda yozgan ilk sahifasini shunday so'zlar bilan boshlaydi: "Men o'z kundaligimni ajoyib yoshligimning eng baxtiyor kunlariдан – bolaligimning ilk orzulari ro'yobga chiqqan kundan boshtagim keladi..."

O'sha kuni men Toshkent davlat konservatoriysi vokal fakulteti tayyorlov bo'limiga muvaffaqiyatli imtihon topshirdim. O'sha daqiqalarda mening sahnada turib hassos va talabchan tinglovchilar qarshisida kechirgancha hayajonlarim, iztiroblarim kuylashim bilan oq qalab tumanday tarqab ketdi.

Imtihonlardan so'ng o'qishga qabul qilingan

"a'lochi"lar qatorida mening ham familiyamni aytishganida dastlabki hayajonlarim bamisli quvonchga aylandi. O'sha kundan boshlab men musiqa ehromi – konservatoriya talabasi bo'ldim, o'sha kundan boshlab sevimli mash'ulotimning sarhadsiz ummoniga sho'ng'idi...

- Botir doimo ishslashni, tinimsiz ijod qilishni va to'xtovsiz izlanishni yaxshi ko'rardi, - deb xotiragan edi taniqli kompozitor Enmark Solihov. - U mehnat qilgan sari rohatlanardi, ilhomlanardi. Biror boshlagan ishini poyoniga yetkazmaguncha tinmasdi. Qisqa vaqt ichida o'zi tashkil qilgan milliy orkestr shuhratini sobiq ittifoqqa olib chiqdi. Moskva, Sankt-Peterburg shaharlariga ustma-ust gastrollarga bordi. Nur bor joyda soya bo'lganidek, o'zimizda orkestrni ko'rolmaydigan g'ayurlar paydo bo'ldi. Ular turli bahonalar bilan orkestr faoliyatini yerga urishga ko'p bor urindilar. Bularning hammasi uning sog'ligiga juda yomon ta'sir qildi. Oqibatda kasallik uni jarrohlik stoliga yotqizdi...

Uning repertuari go'zal va betakror qo'shiqlari bilan boyib bordi. Muxlislar soni ko'paygandan ko'paydi. Endi uni shon-shuhrat chulg'ay boshladi. Lekin Botir Zokirov mashhurlikka, nomdorlikka ruju qo'yamidi. Qo'shiqlardan biri "Arab tangosi" edi.

1958-yil Moskvada o'tkazilgan "O'zbek san'ati va adabiyoti" dekadasida mashhur arab bastakori Farid al-Astroshning (kompozitor Yan Frenkel qayta ishlagan) "Arab tangosi" qo'shig'i birinchi marta yangradi. Yangradi-yu, chaqmoq yanglig' Botir Zokirov nomini qo'shigsevarlar qalbiga muhrladi. Bu kutilmagan katta omad va kelajakka ishonch edi. Mazkur qo'shiq nomi bilan minglab nusxalarda uning plastinkalar chop etildi. Qo'shiq unga olamshumul shuhrat keltirdi...

Botir Zokirov san'atining betakror sir-sinoati, yuraklarni zabit etib kelayotgan jozibasi, umr-boqiyligi, uning bebabu sehri va qadrati – milliy nolalar bilan yo'g'rigan dardli va shirador ovozida.

Bu nolaning nolasini topgan ovoz.

Bu tengsiz ovozda – uning buyuk ilohiy iste'dodi mujassam.

Bu qadrati ovozda shiddat bilan yongan yurakning dardli nidolari bor.

Bu chaqmoqday ovozda jasorat, mardlik va millat g'ururi jam.

Bu daryoday toshqin tovushda qalblarni kuy-qo'shiq ummoni sari oqizib ketadigan mo'jiza to'la sehr bo'edi.

U jahon sahnalarini mardona va o'ktam o'zbek ovozi bilan zabit etdi.

U san'atsevar parijiliklarni fransuz tilida kuy-lab batatom hamayratga soldi.

U Parijadahon estrada san'atining muqaddas obidasi hisoblanadigan "Olimpiya" estrada teatri sahnasini ikki marta ishg'ol qilib, o'zbekning faxri va iftixoriga aylandi.

U dilbar va betakror qo'shiqlari bilan Sobiq sovet davridagi qardosh ellarni hamisha hayajonga ko'mib kuylardi. Uni barcha xalqlar o'z san'atkordi ardoqlab, e'tirof etib, "Buning Botir Zokirov" deb faxrlanar edi. Ko'plab davlatlarning hashamatli konsert zallarida oylab berilgan konsertlariga muxlislari to'ymas edi. Uni hamisha orziqib kutar edilar.

Sobiq sovet davlati qanchalar qudratli va kuchli bo'limasin, Botir Zokirov uni mardona va jozibador ovozi bilan zabit etib, ulkan mammakatdagi barcha xalqlarni hayrat va hayajonga solgan o'zbekning oltin ovozi edi. Xudo bergan bu san'at zargarining oltin ovozi asl edi, sof, toblangan va jarangos edi...

**Ashurali JO'RAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist**

SHUKRONASI VA HAMIYATI BUTUN ODAM EDI



– Iste'dodli shoir Muhammad Yusufning har bir she'ri millionlab qalblarni zabit etgani, o'z ohangicha qo'shiqlarga aylanib ko'ngildan joy olgani bor gap. Har ko'ngilda so'nmas muhabbat yug'otgan shoirimizni xotirlab uning rafiqasi, Muhammad Yusuf nomidagi fond rahbari, "Fidokorona xizmati uchun" ordeni sohibasi, shoirna Nazira As-Salom bilan suhbatlashdi.

– Nazira opa, odatda shoirlar iqtidori haqida so'z borsa, ularning lug'at boyligi qanchalik tosh bosishiga qaraqaladi. Shu ma'noda chin shoir ijodi xalq tafakkurining zalvorini ko'rsatadi. Muhammad Yusuf ana shu tafakkurni to'la his qilgan, boyitgan, quyma, xalqona ohanglari bilan barchanining yuragidan birdech chuoq joy olgan ijodkor edi. Bunday sharaf, mas'uliyat yuki yengil emas, albatta. Ko'p yillardo shoir bilan hamnafas, hamqadam yashagan inson sifatida bugun mana shu joyda – uning haykali poiyida ko'nglingizda qanday hislar kechmoqda?

– Chinakam iste'dodga zamon ham, makon ham daxl qilmaydi, qilolmaydi.

2001-yil iyul. Boshimga osmon qulagandek bo'ldi. O'sha kunlarni eslashdan bezib qolganman. Yana mudish fojiani boshqatdan yashashga to'g'ri keladidi. O'shandan beri ijodga qo'lim ham, ko'nglim ham bormay, faqat u kishining yodi bilan ovunib, o'zimni chalg'itib yashab kelyapman. Muhammad akamning kitoblarini chop ettirish, qayta tayyorlash kabi yushmanlarni menga taskin beradi. Yaqinda ijod stoli q'aladonida qolib ketgan, chop etilmagan shoirlarini nashrha berdi. U kishi "Kuygan joydan kuy chiqadi", deb to'g'ri aytgan ekanlar. Qo'lyozmalarini varaqlab, rostdan ham Muhammad akam olovdek yonib, xalq dardida kuyib o'tganiga, chaqmoqdek shoirlar o'sha yorqin izzirobning uchqunlari ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

– Dardi yo'q shoir chin shoir emas. Asl shoirning yuragi og'risa, vatanining dardi bilan og'riydi. Uning quvonch ham, shodigli ham, iztiroblar ham xalqiga daxlardan bo'ldi. Shoirni oromidan kechirgan, bedor qilgan ham, ulg'aytirgan ham, pirovardida elga suyukli qilgan ham shu dardlar bo'ladи, aslida. "Qora quyosh", "Ko'hna quduq" dostonlarini yoki "Bosmchlilar", "Cholpon", "Usmon Nosir", "Qodiriy bobo", "Fayzullo bobo"larni o'qib ko'ring. Barchasidaadolatsiz tuzumga isyon, uyg'eoq dard bor. Ezilgan, o'z erkiqa ega bo'lmagan xalq dardi shoirimizni behalovat qilgan. Afg'on mavzusiga oid shoirlar ana shu og'riqlar hosilasidir.

– Bu dardakashlik bevosita ularning xalqqa, zamining yaqinligi, soddaligi, samimiyligi, hayotsavarligidan ham bo'lsa, abjamabs.

– Muhammad aka haqgo'y va halol inson edi. Xalqona hayot tarzini, tabiat bag'rida bo'lishni, bolalar ovozini eshitishni yaxshi ko'rар, oddiy, mehnatkash insonlar bilan suhbat qurish u kishiga ilhom berar edi. U kishining yuragiga qishloq hayoti, ona zamin hidi

birday yaqin bo'lgan. She'ri ilhom bilan o'qishini xush ko'rardi. Ba'zan o'ychan, shoirona xayolot olamiga shon'g'ib ketardi. Shunday kezlarida yana bir go'zal she'ri, betakror asar tug'ilishini anglab entikardim.

Mehmonnavozlik, do'stlar davrasida samimi yurakning yuragi hayotiga mazmum berar, aksincha, soxtalik, ikkiyuzlamalik va jur'atsizlikdan ko'p ranjirdi. U kishi yurakdan gapirar, dilida nima bo'lsa, tilida ham o'sha edi. Faqat manfaat ortidan quvadigan ayrim kimsalardan uzoqroq bo'lishga harakat qilardi. Har qanday sharoitda ham xolis, haqiqat tomonda turardi. Amal-martaba u kishi uchun aslo qiziq bo'lmagan. Chinakam martabam qalq muhabbat, yurt tinchligi va xotirjamligida deb bilar edi. Qall pokligi, toza so'z hayotining ikki naqshi bo'lgan. She'rlarida ham ana shu poklik, tozalikni hamisha saqlab, bunga qat'iy amal qilgan, so'z uvoldan qo'rqqan. Mustabid tuzum davrida ham erkinlik haqida dangal gapirar, she'rlarida ham bunga ko'p murojaat etar, yo'qolib borayotgan qadriyatlardan uchun kuyinib, "Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar" kabi kinoyal, dilo'rtar she'rlarini o'zi ham yaxshi ko'rib o'qirdi.

– Yurtimda Muhammad Yusuf she'rlarini yod olmagan, qo'shiqqa aylanganlarini jo'rovoz kuylamagan inson kam. Mana, kuni kecha futbol bo'yicha Osyo championi bo'lgan o'smirlarimiz zavq-u shavqqa to'lib, "Ulug'imsan, Vatanim" qo'shig'ini hayqirib kuylashdi. Menimcha, ana shu ko'tarinki surur ham g'abalabarga ma'lum ma'noda omil bo'ldi.

– Chinakam iste'dodga zamon ham, makon ham daxl qilmaydi, qilolmaydi. 2001-yil iyul. Boshimga osmon qulagandek bo'ldi. O'sha kunlarni eslashdan bezib qolganman. Yana mudish fojiani boshqatdan yashashga to'g'ri keladidi. O'shandan beri ijodga qo'lim ham, ko'nglim ham bormay, faqat u kishining yodi bilan ovunib, o'zimni chalg'itib yashab kelyapman. Muhammad akamning kitoblarini chop ettirish, qayta tayyorlash kabi yushmanlarni menga taskin beradi. Yaqinda ijod stoli q'aladonida qolib ketgan, chop etilmagan shoirlarini nashrha berdi. U kishi "Kuygan joydan kuy chiqadi", deb to'g'ri aytgan ekanlar. Qo'lyozmalarini varaqlab, rostdan ham Muhammad akam olovdek yonib, xalq dardida kuyib o'tganiga, chaqmoqdek shoirlar o'sha yorqin izzirobning uchqunlari ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Bilasizmi, Muhammad aka yoshlar bilan ko'p ishlagan, hamisha atrofida navqiron qalamkashlar ko'p bo'lgan. Qo'lidan kelgancha ularga g'amxo'rlik qilgan. Ana shu ijodkorlarning ayrimlari bugun xalq nazariga tushib, abdyiotda o'z o'mini topib boryapti. Ular meni yo'qlab kelishganida, to'y-to'yichiqlarda, tadbirlarda ko'rishganda Muhammad aka



naqadar oliyanob ustoz bo'lgani, uzoqni ko'ra oldigan donishmand ekan haqida o'yaylasidir. Bu ham katta adibning o'ziga xos xislati ekan, o'ylib ko'rsam.

– Nazira opa, bugun o'zingiz ham ustozning ana shu maslagini davom ettiriyapsiz. Yoningizda qizlarigiz Madina bilan Nozima sizga beminnat dastyor...

– Biz 2003-yili Muhammad Yusuf nomidagi jamaot fondini ochdik. Ikki yildan so'ng "Oltin qalam" gazetasi faoliyatini yo'ga qo'ydik. Bu gazetani yoshlar minbariga aylantirishga intilib, yaxshil insonlarning ko'magi, qo'llab-quvvatlovida niyatimizga erishdik. Fondimiz bir qancha grantlarni qo'liga kiritdi. Iqtidorli yoshlarni, navqiron tarjimon va rassomlarni kashf qilishga bel bog'lab, ko'plarining yo'llarini topishida ozmi-ko'pmi hissamiz tegdi, tegyapti. Bu yog'iga ham rejalarimiz tegid.

Eng asosisi, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalabin, shoirning xotirasini e'zozlash yo'llida juda ko'p ishlarni amal-

ga oshiriyapmiz: bir qancha asarlari xorijiy tillarga tarjima qilin, saylanma asarlari qayta-qayta nashr etilmoqda, shoirlar asosida aytgilgan qo'shiqlar zavq-shavq bilan kuylanmoqda, sahna asarlari namoyish etilyapti... Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf go'zal asarlari orqali biz bilan ikkinchi umrini yashamoqda. O'lim – tamoman ayliriq degani emas, ruhiy mustaraklik har qanday hijronidan baland turadi. Ko'ring, shoir hamma yodqa – muhabbatli ko'ngilda, otalik baxtida, keksalik gashtiда, yoshlarning umidida qayta ya qayta jarang sochayapti. Afsuski, Muhammad Yusuf bugungi erkin va omon-omon zamonalarni ko'rmadi. Agar hayot bo'ganida qanchalar zavqqa to'lib, yana qanchadan qancha ajoyib asarlari yozgan bo'lardi. Hayotlik vaqtida "Zomin seminari adabiyotimizni reanimatsiyadan hayotga qaytardi", deb ko'p ta'kidlardi. U kishi shukronasi va hamiyati butun odam edi.

**Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.**

MUTOLAA

FERUZZONDAN MEROS MAKTABLAR

Jadidlar o'z davrida jamiyatdagi barcha sohalarni qamrab olgan qizg'in faoliyati bilan shug'ullanishgan va ular orasida harakatga asos bo'lgani ta'lum edi. Dastlab ta'lum maskanlarda Ismoilbek G'asrali muallifligidagi darslik, qo'llanmalar o'qitilgan bo'sa, qisqa davr ichida mahalliy faollar – Avloniy, Behbudiy, Ibrat, So'fizoda, Hamza, Bobooxon Salimov tomonidan darsliklar yaratilib, foydalanshiga topshirilgani bu soha ma'rifatparvar bobolarimiz faoliyatida nechog'li muhim ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Tabiiyi, o'lkada jadid maktablari paydo bo'lgan davrda taraqqiyarvar pedagoglarga ehtiyoj katta edi. E'tiborli jihatni, shunday jarayonda xalq ichidan yangi avlod pedagoglari yetishib chiqdi.

Yaqinda nashr etilgan "Xorazm jadid maktablari" monografiyasi ana shu davr islohotlari xususida so'z boradi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayyora Samandar va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Umid Bekmuhammad tomonidan ta'min sohasidagi bu jarayon O'zbekiston Milliy arxiv hujjalari, "Tarjimon" gazetasida chop etilgan maqolalar hamda qator memuarlar asosida tahlil etilgan.

Xorazm jadidlik harakatining Turkiston, Buxoro hududlaridaidan farqli va o'ziga xos jihatlar mavjud. Bu holat jadid maktablari, pedagoglari faoliyatiga ham tegishli. Xorazmda jadid maktablariiga nisbatan Turkiston, Buxorodagi kabi jiddiy to'sqinliklar bo'lmagan. Negaki, ushbu maktablari, pedagoglarga Xiva hukmdorlari Feruz, Asfandiyorxon va ko'plab amaldorlarning munosabati ijobji bo'lgan.

Shu tariqa 1898-yilda Xiva, Yangi Urganch shaharlarda Feruzxonning xayriohligi va qo'llab-quvvatlashi bilan ochilgan ilk jadid maktablari Muhammed Vafo, Abdurahmon afandi singari pedagoglar xorazmlik o'quvchilarga ta'lum bera boshlashgan.

Qrimda nashr etiladigan "Tarjimon" gazetasining 1907-yil 30-mart kungi sonida Asfandiyorning "Xiva vali ahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlanganlar haqida"gi xabar chop etilgan.

"Tarjimon" gazetasi To'rtko'l, Xivadagi pochta tizimi orqali Xorazmga tarqalgan va Feruzxon, vali ahdi Asfandiyor, saroy a'yondari, mudarrislari, maktab o'qituvchilari uni doimiy mutolaa qilib borishgan. 1883-yildan 1917-yilgacha bo'lgan davrlarda mazkur gazeta sahfalarida Xorazmda kechayotgan jarayonlarga oid 150 dan ortiq maqola, xabar yoritilgan.

Bu davrda kelib qiz bolalar uchun maxsus jadid maktablari ham tashkil etila boshlangan edi. Xususan, 1906-1907-o'quv yili pedagog Husayin Qo'shayev turmush o'rtog'i Komila Qo'shayevni bilan Yangi Urgancha da qizlar maktabi ochadi. Bu muhim voqeadan xursand bo'lgan Feruzxon Urganchaga borib, mazkur ta'lum-tarbiya ishlari bilan shaxson tanishadi va Husayin Qo'shayevni qo'llab-quvvatlab, unga bosh-oyoq sarpo kiyigizadi. Xazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qoror qildi. Mazkur maktabda Komila Qo'shayeva, Maryam Agisheva, Zaynab Siddiqova singari jadid pedagoglari xotin-qizlarga saboq



bera boshlaydi.

Ushbu jarayonlarda taraqqiyarvar amaldorlar Mamat mahram, Bobooxon Salimov, Xudoyberganbek Matniyozbekovning faoliyatini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, bosh vazir Islomxo'janing jadid maktablari, umuman ushbu harakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonga aylanishi roli katta bo'lgan.

Bu borada bir misol keltir-sak. Xonlikda keskin islohotlar o'tkaza boshlagan Islomxo'ja 1911-yil yanvar oyida Turkiston general-gubernatori huzuridagi diplomatik amaldorga Xivada yana bir yangi usul maktabi ochmoqchiligini bildirgandi. Diplomatik amaldor esa general-gubernatorga "Islomxo'ja Xivada nafaqat xon va amaldorlarning farzandlari bilim ola'digan, balki boshqa xivallik yoshlar ham dunyoviy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladigan maktab yoki gimnaziya ochish niyatida ekanligini menga ma'lum qildi. U yoshlarga dunyoviy fanlar o'qitsila, mamlakat taraqqiyoti uchun foydali bo'la'di, degan fikrda", deya ma'lumot bergandi.

Islomxo'ja shash tariqa 1911-yilda yana bir jadid maktabi ochishga erishadi. Mazkur maktab uchun Islomxo'ja Xiva markazida yevropacha usulda qo'sh qavatli bino qurdiradi. Islomxo'janing yangi usul maktabida 70 nafr bola o'qigan.

Monografiyada Muhammad Vafo, Abdurahmon afandi, Husayin Qo'shayev, Nuriddin afandi, Ahmadjon Akayev, Ramazon Saydashev, G'ofur Usmoniy, Komila Qo'shayeva, Abdulla Salim, Yusuf afandi, Matyoqub Rajabov, Ahmad Nuriddin, David Bakirov, Muxtor Bakirov, Husayin Ibrohimov, Nizomiddinoxun Salimov, Inoyatxon Salimov singari jadid pedagoglari faoliyati, ularning ta'lum jarayonidagi ishtiroki atroficha yorilgan.

Shuningdek, monografiyada Xivadagi "Ta'sisoti xayriya", "Yangi Urganch savodxonlik jamiyatining jadid maktablari darslik, qo'llanmalar bilan ta'minlash, iqtidorli yoshlarni xorijga yuborish borasidagi faoliyati ham tahlil etiladi.

Xiva jadid maktabini tugatib, Istanbul universitetida tahlil olgan Bekjon Rahmon, Gurlandagi jadid maktabi o'quvchisi Olimjon Qodiriy, Yangi Urganchagi qizlar maktabini tamomlagan Maryam Sultonmurodovaning Germaniyada tahlil olishi, ularning keyingi faoliyati, taqdiri ham arxiv hujjalari, o'sha davrga oiboshqa manbalar orqali tadqiq qilingan.

Bir so'z bilan aytganda, "Xorazm jadid maktablari" monografiyasi Xorazm zaminida kechgan ma'rifatparvarlik harakaati tarixini o'rganishda muhim o'ringa ega manba sifatida ahamiyatlidir.

Is'hoqjon ISMOILOV,
filologiya fanlari
nomzodi

MA'RIFATLI MILLATNI YENGIB BO'L MAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan bir necha vazirlilik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda 2021-yildan boshlab har yili aprel oyida an'anaviy "Kitobxonlik haftaligi" tadbirleri tashkil etilayotgani ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Joriy yilning 21-aprel sanasida Toshkent shahridagi Simpoziyular saroyida "O'zbekiston – kitobxonlar yurti" shiori ostidagi an'anaviy V Respublika "Kitobxonlik haftaligi"ning tantanali ochilish marosimi o'tkazildi. Unda AOKA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, noshirlar, axborot-kutubxona markazi mutasaddilari, kitobxonlar, keng jamoatchilik vakillari va jurnalistlar ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar tomonidan mamlatkatimizda kitob mutolaasini keng targ'ib etish, aholi, xususan, yoshlar o'tasida kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, mahalliy va xorijiy asarlarni sifatli tarjima qilish, matbaa sohasini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilayotgani alohida e'tirof etildi.

Ma'lum bo'lishicha, 2025-2026 o'quv yili boshlab maktablarda haftaning har shanbasi "Kitobxonlik kuni" deb belgilanadi. "Noshirdan kitobxonga" tamoyili asosida kitob savdo-yarmarkalari hamda "Jadidlar izidan" respublika tanlovi o'tkaziladi. Shuningdek, ta'lum muassasalari kutubxonalarini fondlarini o'zbek va jahon adapbyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha erishilgan yutuqlarini ommalashtirishni masqad qilganiz, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo'jayev.

Agentlik qoshida bolalar va o'smirlar adapbyoti bo'yicha yozuvchi-shoirlar, ekspert-mutaxassislar, kutubxonachi va pedagog-kadrlardan iborat ishchi guruh tuzilib, bugungi kunda bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan 50 ta yangi asar yaratish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.



ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab olingan.

– Biz mazkur kitob bayrami orqali yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy savyasini yuksaltirishda kitobning roli va ahamiyatini kuchaytirish, o'zbek adapbyoti namunalarini xorijiy tillarga hamda jahon adapbyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha erishilgan yutuqlarini ommalashtirishni masqad qilganiz, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo'jayev.

Agentlik qoshida bolalar va o'smirlar adapbyoti bo'yicha yozuvchi-shoirlar, ekspert-mutaxassislar, kutubxonachi va pedagog-kadrlardan iborat ishchi guruh tuzilib, bugungi kunda bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan 50 ta yangi asar yaratish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, tadbirda "Milliy tiklanish" demokratik partiysi Markaziy Kengashi raisi Alisher Qodirov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otobek Hasanov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid kitob o'qish va uning targ'iboti xususida o'z mulohazalarini bildirib o'tdi.

"Kitobxonlik haftaligi" Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida parallel ravishda bo'lib o'tmoqda. Haftalik doirasida so'ngi yillarda nashr etilgan yangi kitoblarning taqdimotlari, yosh va iste'dodli yozuvchi, shoirlar bilan uchrashevlar, sohadagi dolzor muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan yig'inalar bo'lib o'tadi. 25-26-aprel kunlari esa "Parkent ijod uyi"da bolalar va o'smirlar adapbyotini rivojlantirishga bag'ishlangan "Noshirlar va bolalar ijdorkorining hamkorligi" mavzusida seminar tashkil qilinadi.

Haftalik doirasida respublika bo'yicha 1000 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir, Toshkent shahridagi "Dream park" istirohat bog'ida va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlaridagi madaniyat va istirohat bog'larida, shuningdek, tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarida "Noshirdan kitobxonga" tamoyili asosida kitob savdo-yarmarkalari o'tkaziladi.

Barchani kitobxonlik haftaligidagi faol qatnashishga chaqirib qolamiz. Zero, kitobxon millatni yengib bo'lmaydi.

Nozima HABIBULLAYEVA

TAQDIMOT

ACHCHIQ HAQIQATNING BADIY IFODASI

Ayni kunlarda yurtimizdagи barcha kutubxonalarda kitobxonlik haftaligi doirasida ko'plab asarlarning taqdimotlari o'tkazilayot. O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan san'at arbobi, professor Tursunali Qo'ziyev tomonidan tarjima qilingan "Palangalik qochqin ayol xotiralari" kitobining taqdimoti ham shular jumlasidandir.

Ushbu kitob 1914-yildan 1921-yilgacha Turkistonda surgunda bo'lgan Lyudas va Stanislava Vaynaykis oilaviy juftligi hayotini va faoliyatindan hikoya qilib, o'quvchiga o'sha davr manzarasini tasavvur qilish, qolaversa o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar va turkmanlarning turmush tarzi, urfatdalar va an'analari xususida kengroq ma'lum olish imkonini beradi.

Asli kasbi shifokor bo'lgan turmush



o'tog'ining surgunda kechgan har kunlik hayotini kundaligiga muhrab borgan ayol xotiralari mazkur asarning dunyoga kelishiga sababchi bo'ldi.

– Bu kitobning shu mavzudagi boshqa asarlardan farqli jihat – xolis nuqtayi nazaradir. Sir emas, aksar tarixiy asarlар davr siyosati va boshqa sabablar bilan jiddiy tahrirga uchraydi. Ya'ni ayrim joylari

qirqib tashlanadi, ba'zi bo'limagan voqe'a-hodisalar bo'ttirib ko'rsatiladi. "Palangalik qochqin ayol xotiralari" kitobi kundalik bitiklar asosida yaqin o'tmishimizdan ro'yrost hikoya qiladi. Uning ahamiyati ham ana shu badiy haqiqatidadir. Sir emas, aksar tarixiy asarlар davr siyosati va boshqa sabablar bilan jiddiy tahrirga uchraydi. Ya'ni ayrim joylari Teshaboyeva.

Taqdimotda Latviya va boshqa mamlakatlardan turib onlayn ishtirok etgan qatnashchilarga ham so'z berildi. Ular orasida kitob mualifining oila a'zolari, Latviyadagi o'zbek jamiyatining faol vakillari va boshqa xalqaro ekspertlarning fikr-mulohazalar tadbir ishtirokhilari tomonidan iliq kutib olindi. So'z oiganlar O'rta Osyo, xususan O'zbekistonda yashagan insonlarning surgun azobini tortayotgan o'zga millat vakillariga ko'ssatgan mehr-oqibati, bag'irkengligi asarda o'z aksini topganiga ko'ssatgan uershidi.

"Palangalik qochqin ayol xotiralari" badiiy asar sifatida o'quvchiga estetik zavq berish asosida tarixchi olimlar, geograflar, siyosatshunoslar va boshqa tadqiqotchi mutaxassislar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Go'zel SOATOVA

YANGI NASHR

Muhammad Siddiqning "Musofir daraxt"idan qo'l olib, to'g'risi, yurugim allatovur bo'lib ketdi. Shoirlar qisqa satrlarda juda lo'nda va teran yashabdi. Mana, sizga she'r: "Hilol – yuragimning tilingan joyi". Bo'idi. Shuning o'zitta she'r. She'r bo'lgandayam, iztirobi katta she'r.

Muallif bamusoli nuqta-nuqta qo'yib,

no'an'aviy usulda surat chizayotgan musavvir.

Fikrim isboti va izohi uchun, keling, yaxshisi misol keltiray:

O'ZIMNI OVUTDIM

Kaftimga suv to'ldirib

chopayotganga o'xshayman,

Boy berib borim

nedir topayotganga o'xshayman.

Angladim

ellikning arafasida,

Qiziq,

aval nenil bilgan ekanman?

Aslida,

talata'p dunyosiga men

Bir seni axtarib kelgan ekanman.

Butun umrini, o'z mohiyatini salmoqlab, bor-yo'g'ini taroziqa solib ko'rayotgan shoirlar o'g'riqli masalalarga yondashuv nuqtasidayman, uslub, shakl, hatto mazmunda qo'qqisidan badiy kashfiyot qilib ko'satayaptimi, demak, bilasizki, u allaqachon shaklinib, o'z yo'lini, adabiy imjini topib qo'ygan bo'ladi. Muhammad Siddiqning eng qisqa satriga bir ko'z tashlisangiz ham, beixtiyor uning ichki dunyosiga ko'zingiz tushib, hang-u mang bo'lib qolmasiz, chunki yondashuv nuqtasining o'zi badiiy kashfiyot bu og'amizing. Mana bu she'rler shu fikrning yaqqol tasdig'i:

MOZOR

Buncha ko'p bo'lmasa bu yerda

Baland-past yopig'liq qozonlar.

TADQIQOT

MILLIYAT TOMIRINGIZ QANDAY URADIR?

...1918-yil "Chig'atoy gurungi" tuzildi. Bu jadidlarning ochiq siyosiy faoliyatdan endilikda murosa yo'liga o'tganini anglat, ular butun kuch va q'oyalarni adabiyotga, ayniqsa, she'riyat va ilmga ko'chirishni maqsad qilishgandi. "Ishtriqiyun" gazetasining 1919-20-yillardagi sonlarida "Chig'atoy gurungi" dasturi yo'nalihsida ko'plab she'rler e'lon qilinadi. Bu q'oyayn butun, hurrattyati kuylovchi asl she'riyat edi, uni Fitrat, Cho'lponnaing izdoshlari yaratdi. Keyinchalik tashkil etilgan "Qizil qalam" jamiyatini ham "Chig'atoy gurungi"ning yangi bosqichi sifatida faoliyat yuritishi ko'zlangan edi. Ammo...

1918-yillardan sotsialistik matbuot ham izga tusha boshladiki, 1920-yilga borib sotsializm ancha kuchaydi, bolsheviklar Buxoro va Xivani egalladi. Juda ko'plab ijodkorlar hayotida yangish tushunchalar, ikkilanish, tayinsizlik boshlandi. 1894-1904-yillarda jadid-qadim ziddiyati davom etgan bo'sha, 1919-1924-yillarga kelib ulamolarning o'zi qadimchi va taraqqiyiparvar deb ataluvchi ikki guruhga ajratildi.

Juda katta ma'naviy to'lqin sifatida yuzaga kelgan "milliy she'r" masalasi ham millat ziyo'lilar o'tasidagi nizoga aylantirilidi. O'z vaqtida ko'plab uyg'ooq fikrli ijodkorlar jadid adabiyotini yaratishga bel bog'lagan edilar. "Milliy ash'ori Tarjimon" majmuasi noshir va muharriri Bahrombek Davlatshoyev ham "Hurmatti o'quvchilar!" sarlavhali so'zboshida "G'aflat, jaholat chuquriga chuqur koldikmi, boshqa shoirlar kabi milliy she'rler yozish bilan shug'ullanmas, ularni millat uchun lozim va lobidigini xayolga ham keltirms edim..." Shuning uchun o'mish shoirlariga taqlid qilib, ular kabi ma'shalarining nozik qadalaridan yozib yurgandim", deya iqror keltirildi. Shuningdek, uning "Emdi hamdar o'sunki, 1905-miliydon sanasidan buyon musulmonlar o'tasina bir his ishtiboh asari ko'runub, bul sababli matbuot ishi ilgari bordig'ko'runmoqa va adabiyoti milliyamiz doira tariqig'a kirmoqdadur... Bul o'tarda meni-da milliyat tomirim harakatga kelib, milliy she'rler yozmoqg'a va Vatani azizim o'lan turkistonli o'z dindoshlar g'aflatindan va ibratsizliklarindan va bir necha kamchilik va kelishsiz ishlarindan bahs etmoqg'a majbur etdi", deya yangilik yo'liga kirdigan edi.

Ammo siyosiy ta'sir ostida, aytganizmizdek, "milliy she'r" masalasi ulamo, ma'rifatparvarlar va jadidlar o'tasida keskin bahsli holatni yuzaga keltirdi, endilikda u Fitrat, Cho'lpone timsolida ayovsiz qarama-qarshiliklarga uchrardи. Shu tariqa Fitrat va Cho'lpone ijodi matbuot sahifalarida adabiy tanqidning alohida bir tarmog'iga aylanib bordi.

"Turkiston" gazetasining 1923-yil 23-mart sonida "Uyg'onish" sarlavhali imzosiz taqiz-maqola bosiladi. Bu shunday maqolaki, uning bo'yinini istagan tomonga burish mumkin edi. Muallifning "Turmush g'avg'olari, qo'zg'alon va o'zgarishni tiqlinari bizning boshlang'onlig'ini achchiq bir surdatda sezdirdi". Shoirlarimiz qol va bulbul madhi o'mrida zamona va muhit kuyularini o'qumoqqa boshladilar", tarzidagi fikrlarini sog'lon nazar bilan mutlaqo qabul qilish mumkin. U Cho'lpone she'rlarini "juda nafis va she'riyat muhiblarining ko'ngillariga muvoqofidir", deya tariflar ekan yoki "xayoldan haqiqatga o'tish davri o'rganish kunlarining yuragiga ilk bergan

JAHON AYVONIDA

ISTANBULDA KETMA-KET ZILZILALAR

Marmar dengizi Silivri qirg'oqlarida ketma-ket zilzilalar sodir bo'ldi, ulardan eng kuchilisi 6,2 magnitudaga yetdi, deyiladi Turkiya Favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlarni boshqarish boshqarmasi (AFAD) saytida.



Zilzilalar Istanbul, Tekirdag', Yalova, Bursa va Balikesir viloyatlarida yaqqol sezildi.

Respublika Transport vazirligi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, aeroportlar, yo'llar, poyezdlar va metroga hech qanday zarar yetmaganini ma'lum qildi.

Yer silkinishlari taxminan 7 km chuqurlikda sodir bo'lgan, deya anqlik kiritdi "Anadolu". Agentlikning yozishicha, odamlar vahimaga tushib, binolarni tark etgan va ochiq maydonda to'plangan. "CNN Turk" xabariga ko'ra, zilzila hado Istanbuldan 300 km uzoqda bo'lgan Anqarada ham sezilgan.

barlik qilishi rejalashtirilgan Marko Rubio u yerga uchmasligini xabar qildi. Buning ortidan Germaniya va Fransiya tashqi ishlar vazirlari ham safarini bekor qildi.

tuyg'ular umidsizlik, oksinish, aldanish shaklida og'izlardan to'kiladir" der ekan, bu mulohazalar va keltirgan misoli davr haqiqati hamda mantig'iha zid emas:

Nechuk ochildi ko'zim,
qayg'a ketdi uyqularim,
Bu uyg'onishda to'lub-toshdi,
oshdi qayg'ularim...

Chunki uyg'onish og'riqsiz bo'lmaydi, bu tabiiy jarayon. Muallifning mana bu xulosalovchi fikri bo'sha dudama qilichga o'xshaydi: "...umidsizlik bizning so'ng'i davr adabiyotimizning ko'zga ko'rinarlik va haqiqatan achinariq xususiyatidir... haqiqatning achchig'ligini bilmagan bormi?" Ehtiyyotkor muallif aytgan haqiqat siyosat qo'lida bora-bora avyob darajasida o'sib bordi va Cho'lponne halok qildi.

Gazetaning 1923-yil 4-may sonida Z.Bashirning "O'zbek shoiri – Cho'lpone she'rleri", 1-yil sonida "O'zbek shoiri – Elbek" maqolasi chop etilgan. Muallif bu davrn o'zbek chig'atoy adabiyotining yangi davri deb ataydi. Cho'lpone "...she'rleri tekis va nafis bo'lib tizilib keladir... chin yurak va his shoiri (ilrik) bo'lg'oni holda... ochiq va ma'lum bo'lg'on bir maqsadg'a qarab yozilardir", deya alqaydi.

Cho'lpone qo'yila boshlagan qator ayblarni rad etadi: "xayolga juda boy bo'lg'oni holda ul o'zini kishilik olamidan chiqorg'uchi xayollardan ham uzoqda; she'r tasvirga boy bo'lib, ma'nosidan so'zi oz va shularni sof o'z tilida yozadi". Z.Bashir imzosidan muallifning maqolasini "to'g'ri yo'l"ga solmoqchi bo'ladi, shoirning umid va imoni haqida yozishni lozim topadi, maqola, aslida, shu jumla uchun yozilgani oydinlashadi: "Cho'lpone o'troqda zor va fig'on juda oz. Ul zor va fig'onlarni yozg'onda ham ularni umidlik iboralar bilan tushuntirib ketadir". "Turkiston", "Qizil bayrog'", "Qizil O'zbekiston" sahifalarini kuzatganda, bir shoirning, ayniqsa, Cho'lponnaing umid va imoni to'g'risida yozish jasoratdek tuyuladi. Ammo muallif tanqid qilishdan tiylimaydi: "Cho'lpone o'troq 'el' va 'xalq' so'zlarini qancha ko'b yozsa va so'zlasa ham, ul xalq shoiri emas, xalqqa yaqin bo'lg'on ziyolilar shoiridir".

Z.Bashir Cho'lpone she'riyatida xalqchilik juda ozligi, uning idealistikka yaqinlashib borayotgani, tabiat tasvirlarida keraksiz falsafiy mushohadaga berilishi, "el", "xalq" so'zlarini me'yordan ortiq qo'llashini ham tanqid qiladi. "Kuz" she'rda tabiatning mazlum sharqqa muqoyasa qilinishi tanqidchiga malol keladi. Z.Bashir shoir idealellar bilan yashash, tekis, nafis, lirik she'r jangovar va to'pori xalqchilikdan yiroq bo'lishiň qabul qilolmadi. Ammo bir haqiqat borki, davr tanqidchilar qaysiki

shoirni tekshirar ekan, Cho'lpone mezon sifatida oladi. Elbekka bo'lsa "dostonchi bo'lg'onda ham xayol dunyosida uchquchi idealist ziyo'lalar uchun yozg'uchi dostonchi bo'lmasedan, sof xalq dostonchisidir", deya ta'rif beradi. Z.Bashir bir necha sabablarni ko'rsatib, Elbekka kuchli, iste'dodli yosh shoir nomini berishiga hali erta ekanligini yozadi: unda yurak shoirligi va yolkunliq hislar oz ko'rildi; masallarida juda og'ir iboralar va jumlalar ko'b; tabiat tasvirlariga ham uncha usta emas; so'zlarini keraksiz ko'b ishlataladi. Muallif bu kamchiliklarni sanaydi-yu, ammo uni boshqa iste'dodli, yurak yolqiniga boy shoirlardan ustun qo'yadi: u ruhi bilan xalq shoiri; quruq hisga berilib, xayol olamida ushish yo'qdir; "yo'qsillar adabiyoti"ga yo'l solishiga umid bor.

Z.Bashir adabiyotga, she'riyatga qo'yiladigan mezonlarni juda yaxshi biladi, ammo uni san'at maqomidan tushirib, mardikorga aylantirish tomon boradi va buni ongli tarzda bajaradi, xayolan Elbekni Cho'lponga qarshi qo'yadi. Mana shunday maqolalardan xulosa qilish mumkin, 1923-yillarda milliy adabiyotda zo'riqish, qoliplarga tushish boshlangan edi.

Ne'mat Hakim "O'zbek adabiyotida tanqid va abadiy muhokamalar" maqolasida Elbek, Fitrat, Cho'lpone shoir sifatida yo'qqa chiqarishga urinadi: "Elbek shoir ham emas... u tirishqoq bir ischidir... Fitratni ham hozirg'i Yevropa tarozi bilan o'chog'onda shoir bo'lib chiqmaydir. Balki Buxoroyi sharif va Eron she'riy mezonlari bilan o'chong'ondag'ina yaxshi bir falsafy shoiridir. Cho'lpone kefganda ul milliy xususiyat bilan qoynoydir, lekin shuni ma'lum bir suratga kiritib yetkara olmaydir. Shunday bo'sa ham uning yozg'onlarining 95 % olib tashlag'anda 5 % bilang'ina lirichiskiy bir shoir deyariga yoraliqdir".

Bu 1917-yilden o'z qiyofasiga ega bo'lgan chinakam yangi o'zbek she'riyatining rad etilishi, unga qo'yilayotgan o'z o'nini qizil she'riyatga bo'shatib berish talabi edi. Bularga javoban yana V.Mahmud o'taga tushadi va o'zbek adabiyotining borligiga shubha qilayotganlarga Cho'lpone nomi bilan javob bermoqchi bo'ladi ("Turkiston", 1924-yil 25-iyun). Bu kurashlarichida Cho'lpone "Ulug'hindiy" maqolasini e'lon qildi, bu bilan u adabiy tanqidga adabiy va she'riyatga kattaroq mezonlar hamda o'chovlari bilan qarash kerakligini, chin adabiyot aslida qanday bo'lishini eslatib qo'yomoqchi bo'ldi. U eski, yangi yoki g'arb adabiyotining o'z qiyamti borligi, adabiyotga adovat bilan qarab bo'lmasholisini yozdi. Milliy adabiyotni dunyo adabiyoti miqyoslarini bilan o'char ekan, mavjud vaziyatni juda mohirliq bilan ifodaladi: "...o'zbeklar eskidan – hech sababsiz! – arazlag'on, xafa; yangiga – endigina suqilib kirmoqda. U adabiyot maydonida yangilikka nisbatan: yosh bola, go'dak, chaqaloq; esklilikka nisbatan: yetim, kimsasiz, besprizorni, o'zboshli! Jur'at qilib, "yo'lsiz" deb yuborayin deyman-u qo'rqamen, negakim, boshlab... o'zim yo'lsiz!" Cho'lpone maqolasida adabiy avlodlar silsilasini quydigicha tizadi:

Navojoydan to Muqimiygacha bo'lgan davr; u bir xiligi bilan sho'r yuragini toldirdi, chunki bu vaqtga kelib ushu adabiyot o'z vazifasini o'tab bo'lgandi;

Avloniy, Tavollo, Siddiqiy, Hamzalar avlod – uyg'otuvchi avlod; Cho'lpone ularni "o'qimaymen, o'qimaymen, meni shu holg'a solgan o'shalar", deya iztirob chekadi;

o'z avlod – uyg'ongan, yuragi millatga o'chilgan avlod; o'z avlod qiyofasini Cho'lpone "Nechun ochildi ko'zim. Qayga ketdi uygularim?..." misrasi bilan ifodalagan;

Botu, G'ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboylar avlod; Cho'lpone ulardan quronvadi, "yong'on chiroqlar" deya alqaydi va ertasini ularda ko'radi.

Cho'lpone "ortiq yangilik, g'arbliq yo'rtiqcha sharqlilik"ka berilmagan, sharq va g'arb o'tasida oltin ko'priq bo'ladigan bir she'riyat yaratilishini xohlaydi, har go'dakda bir Tagor, bir ulug' Hindiyni ko'radi. Uningcha, hali go'dak bo'lgan o'zbek adabiyoti o'zida buyuk kelajakni kamolga yetkazadi. Garchi butun matbuot, yig'inlar u majlislar bor ovozda Cho'lpone umidsizlikda ayblagan bo'lsa-da, u 1935-yilda ham "Bizning ulug' mamlakatimiz va ulug' xalqimiz – ertaga bugundan ham kuchliroq, hakimroq va baxtilroq bo'ladi", deya yozadi. U o'zidan umidni uzganada ham kelajakdan umid uzmaydi. Ammo Cho'lpone bu maqolasi matbuotda ko'tarilgan shovq'on-suronlar ichida eshitilmay ketdi. Aksincha, yosh kuchlarni Cho'lpone ta'siridan "saqlash", adabiyot kuchlarni to'plash masalasi ko'tarildi, Oybeka "baloga yo'liqqa" deya tashxis qo'yildi. Munavar qorining: "Mafkura uchun kurashilmasin, islosh qilinsin", deya aytgan so'zlarini hech kim eshitmadи. Botu oktyabr inqilobidan so'ng adabiyot tayin ijodiy kuchlarni bermagani, bir joyda despinib turib qolganidan ogholantirdi: "Oktyabr inqilobidan so'ng borliq ko'satgan adabiy oqim "jadid" adabiyotini maydonдан chiqarib tashladi. Bir necha yil ichida bir to'da yosh qalamkashlarni ko'pchilik nazariga taqdim etdi. Lekin bu yangi o'zbek adabiyot ham biringchi davrda butunlay milliy ruh bilan sug'orilg'oni uchun belgilig yo'lda o'sdi... "Chig'atoy gurungi" yosh kuchlarni to'plash harakat qildi va "Gurung" yo'qolg'anidan so'ng yangi o'zbek adabiyotda ko'b yangiliklar borliqa chiqoriladi. "Chig'atoy gurungi" bayrog' ostiga to'plangan kuchlar ikki katta to'daga aylardildi. Bir to'da tilak, yo'l va shaklida "Gurung"ga sodoq qolib ilgariladi. Ikkinci to'da bo'lsa da tilakka va u yo'iga qarshi chiqd; yangi yo'l, yangi shakl izlashga kirishdi. Biroq bu firkda birinchi to'dan butunlay ulug'losq'hon bo'lsa ham, shu kungacha o'zbek adabiyotida boshqa yangiliklar yaratolg'oni yo'q" (Botu, "Qizil qalam" va uning galadagi vazifalari)." "Qizil O'zbekiston", 1927-yil 23-sentyabr).

Botu murakkab shaxs, to'laqonli jadid emas. Ammo u muhim o'rinaldi Fitrat va Cho'lpone yo'liga sodoq qolgan, nazarimizda. Bu uning "Qizil qalam" jamiyat "Chig'atoy gurungi" bajargan vazifani biroq ziyorlig'ida shaklida davom ettirishiga umid bog'lashida, shuningdek, bu yangi jamiyatning kuchlari qarorli alohida adabiy harakatni, degan savollarga Fitrat to'laqonli javob berdi va o'z risolalarida uning modelini yaratdi. Milliy Vatanning milliy modeli – Turkiston muxtoriyati bo'lsa, she'riyatning modeli – milliy she'r edi.

Shahnozaxon NAZAROVA, filologiya fanlari doktori, dotsent



Boshlanishi 1-sahifada.

Men esa 43 yoshimda – otamning bu ketishidan 68 yil keyin – 1990-yil 20-otkazabrdan 15-noyabrgacha O'zbekistonda bo'ldim. Bunga qadar chet ellarda – Turkiya, Pokiston, AQShda tahlil olayotganda dastlab ota-onamdan yurtimiz haqida turli ma'lumotlar olib, keyin maktab va universitetlarda shu mavzularda bakalavriat, magistratura va doktorlik dissertatsiyalarimni yozib chiqdim.

Ikkinci muhim voqeа, O'zbekiston ziyoratimda ota tomonidan yaqin qarindoshlarini bilan tanishganim bo'ldi: ulardan biri atoqli tarixshunos olim professor Sulaymon Inoyatov – amakimiz Otaulla Xo'jayevning (1880–1937) nevarasi edi. O'sha paytda Xo'jayev familyasi "xavfli" bo'lgani uchun Sulaymonjon bobomiz Inoyat ismini o'ziga familia sifatida olishga majbur bo'ldi.

Men va Sulaymonjon ungacha bir-birimizni hech bilmas edik. Bir kuni shoir Jamol Kamol bilan Toshkentdagi Buxoroda qo'nganimizda Sulaymon bilan aeroportda besh daqiqacha ko'rishi-baplashdik, u kishi Toshkentga uchib ketayotgan ekan. Biz tanishmasdan oldin Sulaymonning boshidan qiziq voqeа o'tgan, keyinroq menga aytib berdilar:

Sulaymon Inoyatov 1987-yilda Moskovda doktorlik dissertatsiyasini yoqlayotganda domlalar uning dissertatsiyasida chet el olimlarga qarshi yetari tanqid topolmay, qo'liga chet tillaridan ruschaga tarjima qilingan maqolalarni tutqazib, dissertatsiyangizda bularni qattiq tanqid qiling deyishgan. Ular orasida mening 1973-yilda AQShdag'i bir ilmiy kitobda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920–1924) haqidagi maqolam ham bo'lgan. Sulaymonjon u paytda "Timur Kocaoglu" ismli shaxsnинг o'ziga qarindosh bo'lganini, albatta, bilmagan. Keyinroq menga aytgan: "Maqolangizdagi fikr va faktlarni to'g'ri topgan bo'lsam ham, sizni sovetga qarshi burjua tarixchisi deb qoralab radiyi yozishga majbur bo'ldim!" Mana bu voqeа ham biz qarindoshlar orasida o'sha temir pardaning qanchalik kuchli to'siq bo'lganidan dalolat.

Uchinchi muhim voqeа 1990-yilning oktyabr oyida ToshDuga borgan chog'inda yuz berdi. Universitetning o'zbek filologiyasida o'sha paytlari dars bergan G'ulom Karimov, Abdugodir Hayitmetov, Ahmad Aliyev, Hasanox'ja Muhammadox'jaev, Umarali Normatov, Karim Nazarov, Abdug'afur Rasulov, Begali Qosimov, Iristoy Qo'chqortoyev, Norboy Xudoberganov va boshqa ulug' olimlar bilan tanishdim. Ular asr shajarasida o'chmas iz qoldig'an, bugungi avlod uchun, ta'bir jozi bo'lsa, afsonavi ustozlar hisoblanadi! Shaxsan men uchun ular bilan suhabatlar hayotimning eng unutilmash onlaridir...

Begali Qosimov va talabalar bilan auditoriyada qizg'in suhabat kechgandi. Demak, siz ham o'sha paytda talabalar orasida bo'lgansiz, bundan cheksiz xursand bo'ldim.

Shu uchrashuvdan so'ng Umarali Normatov meni Erkin Vohidov uyida yig'ilishga taklif etdi. U yerda ham ko'p shoir-yozuvchilar bilan tanishdim.

Keyinroq shoir Rauf Parti bilan bir necha bor ko'rishdi, uvida mehmonda bo'ldik. Shoir Shukrullo, Dadaxon Hasan, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov va boshqa ustoz ijodkorlar suhabatida

"OLISLARDAN BIR SADO..."

bo'lganmiz, hatto mashhur raq-qosa Tamaraxonim bilan ham bir to'ya gaplashganimizni eslayman:

– Ustoz, sizni sergirra ijodkor deb bilamiz: jurnalist, publisist, shoir, adabiyotshunos olim, faol tashkilotchi... Barchasining uddasidan chiqib, qomusiy bir yo'sinda ijod qilish osor emas. Temur Xo'ja'o'g'li degan insonga siz chetdan qarab, uning ijodiy faoliyatiga qanday baho berasiz? Shoir Temur Xo'ja'o'g'lining qaysi she'reni har doim xirgoji qilib yurasiz?

– E'tirof uchun tashakkur. Mening turli yo'nalishda ishlab ijod qilishimga otam Usmon Xo'ja va onam Hakimaxon To'ra ni bosab deb bilaman. Ular vatan tuyg'usini ong-u shuurimga shunday mahkam joylashgan ekanki, boshlagan ishimga qanday sho'ng'ib ketganimni o'zim ham bilmay qolaman. Ona tomonidan bobom Sayyid Akramxon To'ra Qo'qon xoni Xudoyorxonning jiyan bo'ldi. Qo'qon xonligi chor Rossiya tomonidan bosib olingach, Koson holimi bo'lgan Sayyid Akramxon To'ra 1880-yilda Abdurahimxon o'zi bilan birga Afg'onistonga olib ketadi. U yerda taxtga o'trigach, Akramxon To'ra o'ziga noib etib tayinlaydi. Otamiz 1922-yil oxirida Kubulga kelganida Akramxon To'ra ularni o'z saroyida saqlaydi. Sovetlar Afg'onistonga siquv qilib Usmon Xo'jani qaytarib berishlarini talab qilishganida otamizga Istanbulga yo'l olishini aytib, qizi Hakimaxonni turmushga beradi. Onamiz folklorini – alla, matal, ertag-u dostonlarni yod bilardi, bolaligimda menga ko'p aytib berardi. Otam esa mena Navoiy, Bobur, ayniqsa, Fitrat va Cho'pon kabi jadid shoirlar ijjodidan o'qib berar, ularni yodlashimni tayinlardi. Bolalikdan o'zbek xalq o'zaki ijodi, mumtoz adabiyot hamda jadid adabiyotini puxta o'ganib, ular ichida o'sdim, yashadim.

Bu diqqat-e'tibor keyingi qadamlarimda, ilm yo'lida katta yordam bo'ldi. Ayniqsa, oly o'quv yurtlarida – Turkiya va AQShda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixchilik bilan birga, sovet tuzumi tufayli marksizm, kommunizm, siyosat, xalqaro munosabatlardan sohalarida darslar olib, ilmiy izlanishlar olib borishimda turki bo'ldi.

Maktabda o'qib yurgan yillarimda qisqa hikoya, she'rlar yozar va ular Turkiyadagi boylar jurnallarida chop etildi. Talabalik davrimda turk shoirlari ijodi bo'yicha adabiy-tanqidiy, tahliliy chiqishlar qildim. Keyinroq o'zbek adabiyoti yuzasidan turkcha va inglizcha maqolalarim Turkiya va AQShdag'i bir qator jurnal, ensiklopediyalarda nashr etildi.

1987-yildai odonnamularimdan biri turk hikoyachiligining murtozavil Umar Sayiddin nomidagi mukofotgaloyiqko'rildi. 2018-yilda turksha she'lardan iborat "Sevgi so'zlari" kitobim nashr etildi. O'zbek shoir Yo'ldosh Eshbek ushbu kitobdan she'rlarimni o'zbekchaga o'girgach, shu nomida Toshkentda nashr qilindi.

O'zbekcha she'rlar ham yozgaman, albatta, 1992–1993-yillarda "Sharq yulduzi", "Yoshlik" jurnal, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida nashr etilgan. Ular orasida "Olislardan bir sado" she'rimni chet ellardagi o'zimni tasvirlaganim uchunmi, ayro

yaxshi ko'raman:

*Ona yurtim, tong chog'i
Menga o'xshash bir sabo
Yetkazar tog'lar oshib
Olislardan bir sado.*

*Bu sado iltijomas,
Bu sado bir tebranish.
Bu sado intihomas,
Bu sado bir uyg'onish.*

*Sabo bo'lib sochingda
O'zimga taxtayrin.
Sabo bo'lib qalbingda
Elimga baxt so'rayin.*

– Ustoz, bugun jadidlar mavzusi juda dolzarb va muhim. Biz o'zbek jadidshunos olimlarining asarlari, tadqiqotlaridan yaxshi xabardormiz. Ammo jadidlik harakati paydo bo'lgandan to'hozirga qadar bu masala turli millatga mansub xorijagi olimlar tomonidan ham tadqiq qilinadi. Yaqinda yurtimizda yaponiyalik jadidshunos professor Hisao Kumatsu mehmon bo'ldi. Ancha suhbatlashdik. Gazetada suhbatlari ham berildi. Endi undan boshqa, sizga yaxshiroq tanish bo'igan, deylik, Edvard Ollvor, Adib Xolid, Ingeborg Baldauf, Turaj Atabaki, Yavuz Akpinarlar bor. Shu kabi bizning yaqin tariximiz xolis, odil o'rganib baho bergan boshqa yana kimlarni aytu olasiz? Ya'ni olim sifatida nomlari sanalgan va sanalmagan xorijlik qaysi jadidshunoslarning qanday nomdagi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish muhim deb hisoblaysiz?

– Bahodirjon ustoz, Siz aytgandek, bizning umum Turkiston, shu bilan birga Volgaboy'i, O'roldan Qrimga, u yerdan Ozarbayjon, Afg'oniston, Sharqiy Turkiston va Usmonli davlati paytidagi jadidlik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi judayam kuchli bi'r tarraqqiyarvar ziyo'lalar uyg'onishi hamda demokratiya va mustaqillik harakati o'laroq ayniqsa turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan edi. Oldiniga xalqni uyg'otish uchun erkin matbuot va zamonaviy mabkab ta'limtarbiysi bo'lib boshlagan bu harakat qisqa muddatda siyosiy tus oldi. Chor Rossiysi davri oxiri va bolshevollar hokimiyatining ilk davrida Muxtoriyat va keyin mustaqila respublikalar tashkil qilina boshlaydi: 1917-yili Qrim, Turkiston, Alash-O'da muxtoriyatlari, 1918-yili Ufada Butunrossiya Turk-tatarlari muxtoriyati, 1918-yili Ozarbayjon jumhuriyati, 1920-yilda Buxoro va Xorazm jumhuriyatlari. Men bu yerda "respublika" so'zi o'rniga "jumhuriyat" so'zini qo'llaganining boisi, bu davlatlarda "respublika" atamasi o'rniga "jumhuriyat" atamasi qo'llanilgan: "Sho'royi islamovi" kabi. 1878-yildagi Usmonli davlati va 1906-yildagi Eronda mashruuty tuzumlarga o'tilganda, ulardag'i majlis, ya'ni parlamentga ham "sho'ro" deyilgan.

Muxtoriyat talabini taklif qilgan jadid Mahmudxo'ja Behbudiyyidir. U 1907-yilda "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasini Moskovdag'i Dumaning Muslimmonlar fraksiyasiga topshiradi. Bu muhim hujjatni men 1999-yilda Ismoilbek G'asprali arxivida topib, 2001-yilda otam sharafiga nashr qilingan "Armug'on" kitobida matni va suratlarini taqdim etgan edim. Ustoz olimlar Begali Qosimov va Naim Karimov ushbu nashrimni O'zbekistonda ham e'lon qildilar. Loyiha "Turkiston madaniy muxtoriyati" deb nomlangan bo'lsa-da, uning moddalariga ko'z tashlansa

ma'rifatparvar Behbudiying faqat madaniy emas, siyosiy muxtoriyat talab qilgani ham ayon bo'ladı.

Xususan, loyhada yer-suvni boshqarishni tub aholiga berish, Turkistonga chet eldan musulmon bo'lmagan muhajirlar olib kelib joylashtirilmasligi, maktablar boshqaruning turistonliklar qo'lda bo'livi talab qilinadi.

Otam jadid adabiyoti haqidagi ilk chiqishini 1927-yilda Istanbulda nashr qilingan "Turkiston" jurnalining 1-sonida yozgan bo'lib, maqola "Turkistonda yangi adabiyotning xususiyatlari" deb nomlanadi.

Siz sanab o'tgan xorijlik olimlar jadidlik davri haqida ko'p muhim tadqiqotlar olib borgan. Ulardan biki ustozim, ilmiy rahbarim,

doir tilshunoslik manbalaridan iborat. Ular orasida, qolaversa, Turkistonning turli joylarida, Qirim, Bog'chasaroy, O'renburg, Ozon, Ufa, Boku, Istanbulda 1880–1920-yillarda chop etilgan jadid davriga oid kitob, jurnal, gazetalar arxiv ham bor.

Buxoroda tuzilayotgan alohida tadqiqot markazi uchun mendagi 16 mingga yaqin kitob va jurnal yaxshi manba bo'lishiga ishonaman.

– Jadidlik borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning qaysi jihatlari sizga ma'qul va qaysi qirralaridan ko'nglingiz to'imaydi?

– Arxiv materiallaridan foydalangan asarlar juda muhim. Bundan keyin jadid adabiyoti borasidagi tahliliy asarlarga ko'p



1991-yil. Erkin Vohidov xonadonida.

professor Edvard Ollvor. Eng muhim ilmiy izlanishi doktorlik dissertatsiyasi bo'ladı: "Uzbek Literary Politics" (O'zbek adabiy siyosati). 1965-yilda nashr etilgan. Bu g'oyat muhim, noyob tadqiqot. Unda o'zbek mumtoz, jadid va sovet davri adabiyotidagi siyosat tahlil qilinadi. Ustozim, ayniqsa, o'zbeklar va Turkiston tarixi mavzulariga ko'p xortalangan. Umuman olganda, 1929–1992-yillarda Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Hindistonda jadid davri haqida ilmiy asarlar ko'p nashr etilgan. Jahan bo'yicha jadidlik alohida ilmiy tadqiqot sohasiga aylanib qolgan. 1921–1923-yillarda Germaniyaga o'qishga yuborilgan, bunga qadar Turkiya universitetlarda tahsil o'ta lotin alifbosida yozilgan matnlarda jadid adabiyotining asl uni tovushlari berilishmayti, jadidlar o'z asarlarida to'qqiz unlidan foydalanishgan (ham arab, ham lotin imlosida), hozir o'zbek lotin va kirill alifbosida faqat olita unli harf bor, bu juda katta kamchilik.

Turkiy davlatlar tashkiloti 9 ta unli tovush uchun 9 ta harf bo'lgan 34 harflik mukammal turkiy tillar o'rta lotin alifbosini taklif qilishdi. Umid qilamani, O'zbekistonda ham ushbu alifbo ma'qullanadi, albatta.

– "Jadid" gazetasi nashr etila boshlaganiga bir yildan oshdi. Undagi manbalarni kuzatish imkon bo'ldimi sizda?

– Bu suhbat orqali "Jadid" gazetasiga minnatdorlik bildiraman. Uning dastlabki sonlarida mening ham suhbat, maqolalarim nashr qilingan. Umuman, gazeta jadidlik mavzusida keng ko'lama muhim ma'lumotlar taqdim etmoqda. Uning har bipta sonini elektron shakida kuzatish boraman. Shunday teran mulohazali nashrning jonkuyarlariga, xususan, tahrir hay'ati, ijodiy jamoasiga cheksiz hummatimni bildiraman.


– Siz o'z kutubxonangizdagi kitoblarni Buxoroda tashkil qilinayotgan kutubxonalariga qo'shilganda qaysi qayd qilaysiz.

– Menning kitoblarimdan ayrimlari otamdan qolgan "Axloji nosiriy" kabi qo'lyozmalar; ko'plari Yevropa mamlakatlari, AQSH, Turkiya, Hindiston, Yaponiyada turli tillarda bosmadan chiqqan Turkiston tarixiga oid ilmiy asarlar va esdalik sayohatnomalar; shuningdek, Chor Rossiya zamonida oz sonda nashr etilgan Turkiston hayotiga tegishli fotoalbumlar; jahondagi barcha turkiy tillar lug'atlari, grammatika, shevalariga

boshlang'ich ma'lumot bersangiz. O'sha manbalar to'g'risidagi ma'lumot bizning tadqiqotchilar foydalanishi uchun zarur deb o'yayman.

– Mening kitoblarimdan ayrimlari otamdan qolgan "Axloji nosiriy" kabi qo'lyozmalar; ko'plari Yevropa mamlakatlari, AQSH, Turkiya, Hindiston, Yaponiyada turli tillarda bosmadan chiqqan Turkiston tarixiga oid ilmiy asarlar va esdalik sayohatnomalar; shuningdek, Chor Rossiya zamonida oz sonda nashr etilgan Turkiston hayotiga tegishli fotoalbumlar; jahondagi barcha turkiy tillar lug'atlari, grammatika, shevalariga

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON

QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shokir Alimov – 1898-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 17-poliklinika va 3-bolalar poliklinikasida vrach lavozimida ishlagan. Toshkent pedagogika bilim yurtini, 1932-yili Toshkent tibbiyot institutini bitirgan.

1934-yildan "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zosi bo'lgan. 1941-yil qizil armiya safiga chaqirilgan va 3-4 oy davomida harbiy vrach sifatida lagarda ishlagan. 1942-yil 19-yanvarda Ichki ishlar xalq komissarligi organlari tomonidan hibsga olingen. 5 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1942-yil 20-yanvardan hisoblangan.

U "Boyovut" kanali qurilishida qatnashgan. 1942–1947-yillarda Qozog'iston shahrida ishlagan. 1947-yil qozog'iston shahrida ishlagan. 1947–1949-yillari Ohangaron rayonida shifokor bo'lib ishlagan. 1953-yilgacha venerolog sifatida faoliyat ko'satgan. Shokir Alimov 1957-yil 15-aprelda to'liq reabilitatsiya qilingan.

Abduqahhor qori Sattorov – 1898-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Do'kon sotuvchi bo'lib ishlagan. 1930-yil 28-dekabrda "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy tashkilotining a'zosi: shahrida ishlashlari qo'maq qiz qilingan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 17-, 58-moddalar bilan ayblangan. 1931-yil 25-apreldagi sud kollegiyasi qaroriga ko'ra, 10 yillik qamoq jazosi bilan konslagerga hukm qilingan.



ZARDA

To'y qiling deb do'q qilding, jonim,
Uy qiling deb do'q qilding, jonim.
Ko'mib turmush tashvishlariga,
Zor shoirni ... yo'q qilding, jonim.

— deganda oxirat uyi obod bo'lgur shoir Bahodir Iso yuz martalab haq edi.

Dabdabali to'y kerakmas, men o'ssamam pul sochib arzon shuhurat payida bo'miyan, to'yimni kamxarjina o'tkazaman, it bo'lay agar, deya qasam ichagidanlarga ishonib yurma, xo'pmi?

Hammamizam ko'cha-ko'yda, choyxonada, mayislarda nasihatgo'y kamtarni "yoqvolib", ich-ichimizda o'z gapimizga kuli o'tirganimiz o'zimizga va bir Xudoga ayon, jo'ra. Chunki uya xotin degan Xudoymanning balosi bor. Bir gapiga kirmisani, ikki qovog'ingni solasan, uch o'qrayasan, puchinchisida bari-bir bo'yningni qiyshaytirib ko'satmalariga "yest" deb do'ppingga shapalog'ingni tirab turibsan-u... Bu egov kecha-yu kunduz tinmay asabingga g'ijjakning kamoniday ishqalanib tursa, Abdushoshim ustuning skripkasiyam turish berolmasligiga men kapil. Alqissa, bizam kenjatoyning boshini ikki qiladigan bo'pqoldik. Tagini so'rasang, o'zi bosh degan jonoriv yo'q kenja botirchada. "Lalaku" bilan kecha oqshom "bay-bay" qildirib, bugun peshinda "Nan"dan nonga zo'rg'a o'tkazvaganmiz.

Bularing "zed avlod" mish. Yo'q, bezbet avlod... Kecha-yu kunduz tilpon joniordan bosh ko'tarmaydi. Gapingni uch daqiqadan keyin taxminan ilg'aydi. Sochini laylakning inidek hurpaytirib, ishtonni to'piqdan, paypoqni bir po'y qizil, bir po'y zangoridan ilvoganiga ol'ging qistaydi.

Bu bachchag'ar xotinni eplab, aravasini tortib ketarmikin, deb "ajdarbonu"ga gap tashlasam, "to'shakning ichidayam tilpon bilan yotibdi-yu", deb negadir iljayib qo'ysi.

Xullas, har kuni uch mahal desertga "uylanish qiyomi"ga qoqnon botirib yedim. Tushumadingmi? Xullas, xotinni chakagi timaydi. Oxiri sindim...

Bor-e, dedim, menga nima, dedim, jabrini o'zing tortasan, dedim. Pismiq ona-bola ishni pinhona bitirib bo'lgan ekan. Kelin naqd, quda derazadan kaffini durbin qilib, yo'l qarab o'tirgamish. Sovchi borar-bormas rizolik berilib, "qulluq bo'lsin"lar boshlanib ketibdi.

Chamamda, yana o'sha tilpon ish bitirdiyov. Aravani tortgan ot, hansiragan sayoq kuchuk, deganlaridek, ana endi to'yning tashvishi yelkamga Qo'qon aravadek ag'nadi.

Ixchamgina to'chiq qilamiz, deb boshlangan kamtarona maslahat oshidan "Kenjatoyginanni visol kechasi Murod o'risni yubileyidan kam bo'lsa to'y ham, uy ham buziladi", degan



vahshatli dag'dag'adan rangim kapannusxa bo'lib chiqdim.


Shoshmay tur, hangoma endi boshlanadi. Yo'q, men sarpo-suruq, oldi-berdi, "bor tavog'im – kel tavog'im", "otayupatar", "onasi xo'rsindi", "jiyan ko'rdi", "buvisi qani?", "qo'shnilar xapa", "ulpat soldi" va boshqa jiddiy marosimlarga to'xtalib o'tirmayman. Bu yog'i xotin-xalajga tan. Menga bor-yo'gi to'yxona topish-u, dasturxon to'dirish, konsert dasturi, kortej uyuşitirish, mushakbozlik, pul sochish kabi mayda-chuyda masalalar tegdi xolos. Arabboy oshnamidan, Lazizbek bojamdan, Jamol qo'shnimidan, Mansur taksidan, Shukur cassidan, Shahriyor po'rimdan, Zikrillo karvondan "besh-besh" yig'ib, picha sarmoya qantardim. Bir kunlik to'y g'at-g'ut o'tadi deganlari ja unchaligam to'grimasakan. Ishing tushsa to'yxona egalari o'zini Xudojorxonni qaynatasiday tutarkan. Voypo'-o'y, bularning dimog'ini! Bittasi stol sanab, ikkinchisi stul chandalab, uchinchisi idish-tovog'ini maqtab, to'rtinchisi oshpazini

bozorga solib, otasini narxini bicharkan. Birpasda kalondimog' oldida yer chizib, chusha qip qo'yan bolachoqdek mulzam bo'lib qolarlangsani. Baxtinga mahallaqo'm Dilmurod do'stim bor. Yangiobod bozorida eski muzlatkichiimga xaridor izlab tursam, chirpit hidu anqigan namatni "gilamketdi" qilib yelkalagancha yo'rg'alab kepqoldi. Kaftga kaft tegmasdan dardimni to'kovdim, shuyam muammomi degandek, o'rischa "o'yna" deganga o'xshagan tovush chiqardi-yu, yelkamga qo'l tashlab, bir to'yxonachi sinfdoshi borligini, nihoyatda olijanob, odamparast, savobtalab shaxs suratini ko'z harakati va barmoq ishoralar bilan chizib tashladi.

Bordik. Ko'rdik. Kelishdik. Aytganicha bor ekan. "Besh" ketdim. "To'yni xarajati ot bilan tuyu bo'lmaydi, menga pul kerakmas, duo bilan oqibat kerak", deb ko'ksiga iyagini qo'yib, sukulga ketganda jichcha ko'zyoshi ham qivoribman. Mana, bo'lar ekan-u!

Endi to'yoshini qo'y-da, hangomani mahallamdan eshit. To'y falon kuni deb taklifnomaga bostirib qaytayotgan paytim ko'chamga buridim-u, shundoqqina eshigim oldida ekskavator cho'michini ostonamga tashlab turganini ko'rib, kapalagin to'zib ketdi. Bir jugudnusxa barzangi ko'zining soqqasini o'ynatib, qaydadir yerosti kabeli uzilganini, gumon shu joydaligini, hoziroq kovlab tekshirib ko'rmasa hokim moxovga oshna qilishini pishillab uqtirdi. Yaxshiyam baxtinga mahallaqo'm Dilmurod o'jar bor. Valasapetni g'iyqillatib kepgoldi-yu, ko'zimiga Xizr ko'rinib ketdi. Jon uka, dedim. Keyingi hafta to'y, eshik oldi bo'mba tushganday vayron bo'lib yotsa, qudalar oldida nima degan odam bo'laman? Darrov tushundi.

Mulla XUNOB



"Bizning xalq "mol va jon ketsa ketsun, obro'y ketmasun", deb xatna yoki nikoh va yo aza marosimini o'rung'a keturmak uchun qo'llarinda bor narsalarini bir-ikki kunda barbob etadilar, qarzdor bo'lalar.

Hoji MUIN



TILBILIM

**"CHOSHTEPA" DAGI
"CHOSH" NIMA?**

Yurtimizda Choshtepa deb ataladigan joylar bor. Toshkent shahrining Zangiota ziyyaratgohi yo'lida ham shunday hududni ko'ngardisiz. Xo'sh, Choshtepadagi chosh nima?

"O'zbek tilining izohlari lug'ati"ga ko'ra chosh so'zi tozalangan g'alla, paxta va shu kabilarning xirmondag'i uymi, uyligan g'alla, xirmon ma'ninosini bildiradi. Demak, choshtepa degani xirmontega deganidir. Mamlakatimizda xirmontega degan joylar ham bor.

Xalqimiz orasida "Qarindoshingni oshga chaqir, choshta chaqirma" degan maqol bor. Bu maqol oshga chaqirilgan qarindosh faqat oshning o'zini yeb ketadi, choshta chaqirilgan qarindosh xirmonga sherik bo'lib, ulushini olib ketadi degan ma'noda hazil ohangida aytigan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

**ERKAKLARNI LATTA-PUTTAGA
O'RALSHTIRIB TASHLADIK**

Kecha O'zbekistonda to'ylar tartibga solinishi haqidagi xabar tarqaldi. Bugun ertalab ishta kelayotgan edim. Mikroavtobusning menga yaqin o'rindig'ida o'tirgan ikki ayol shu xususda gaplashib boryapti. Teshik qulq – istamasangiz ham gaplari eshitiladi. Tushunishimcha, to'y boshlagan.

To'yni qisqartirish talabari yo'ilguncha tezlatishmoqchi ekan. Qudalarni shunga ko'ndiribdi (bir kechada! Qoyilman). Avvalgi to'yida karantin sabab hamma qarindoshini aytu olmay, qavm chaqirdisi ko'payib charchab ketgan ekan. Bu gal katta

to'y qilib, hamma qarindoshini bittada aytmoqchi ekan. Kelin salom, challarniyam orzu-havasi bo'yicha o't-kazib olarmish. Gapirib yuborishdan zo'rg'a o'zimni tiydim. Erkaklarning belini mayishtirib yuboringlar endi kelinsalomchigacha

ming dollardan pul to'lab. Bularning eng katta orzusi kelinning oldiga raqsga tushib borib ko'mana berish, qudaning sovg'asini olish...

Erkaklarni latta-putta, mayda orzularga o'ralashtirib tashladik, opa-singillarim. Ular ham katta orzular qilsin. "To'y qildim, deb kerilgan" (kelinsalomda aytildi) to'radan ko'ra championlarning, ahli ilmlarning, Garvard talabalarining otasi bo'lib kerilsin. Bir yigitcha dunyonni tekin internet bilan ta'minlayman, deb izlanyapti, yana bira internetning muqobilini iste'molga olib kiraman, deb olamshumul yangiliklar ustida ishlayshti. Bu yodda... challar muammosi. Yaxshiyam manzilim yaqin edi, tushib qoldim.

Manzura SHAMS
Facebook



Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RİFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI
FANLAR AKADEMİYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QOL'LAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**SHAHIDLAR XOTIRASI
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:

Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:

Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:

Shavkat Bobomurodov

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov

Nigora Tosheva

Mualif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar mulliqiga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 20667

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 050

Lotin yozuvida – 12 617

Media kuzatuvchilar – 43 079


Buyurtma: G – 440.

Hajmi: 4 bosma tablo, A2.

Nashr ko'ssatichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navojo ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxon: (71) 203-24-20

Devonxon: (97) 745-03-69

Jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetas@exat.uz

**"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi:**

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqt: 21:00

Bosishga topshirilish: 19:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz